Юқоридаги мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда, транспорт хизматлари иқтисодий самарадорлигини ошириш бўйича мазкур тадқиқотда муаллиф томонидан қуйидаги йўналишлар таклиф этилди:

- илмий-техник имкониятлар ва ишлаб чиқариш ресурсларидан самарали фойдаланишни йўлга қўйиш;
- замонавий технологиялар асосида транспорт воситаларига техник хизмат кўрсатиш тизимини такомиллаштириш;
- транспорт тизими томонидан экология ва иқтисодиётга етказилаётган зарарларни камайтириш ёки умуман бартараф этишга эришиш;
- замонавий инфратузилма учун сарфланадиган харажатларнинг тўхтовсиз ортиб бориши ва ушбу талабни қондириш мақсадида янги тушум манбаларини излаш масаласи;
- темир йўл транспорти бозорида иштирокчилар ўртасидада ҳосил бўлувчи

⁵ Олиб борилган тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан тизимлаштирилган.

ўзаро таъсир иқтисодий ва технологик самарадорликнинг тушиб кетишини келтириб чиқаради, оқибатда тармоқ бўйлаб темир йўл транспортида юкларни ташиш харажатлари ортади;

- иқтисодиёт соҳасидаги инқирозларга дуч келиш ва инфратузилма хизматларидан фойдаланиш учун тўлов ҳамда тарифларнинг белгиланган даража ва миқдорининг камайиши, давлатнинг қўшимча субсидиялар амалга оширилишини тақозо этиши мумкин;

- тартибга солувчи йўналиш ва объектларнинг кўпайиши билан, шу жумладан инфратузилма хизматларидан қонуний фойдаланиш бўйича, ҳам давлат бошқаруви ва тартиб тизимини такомиллаштириш;

- иқтисодиёт ва ташувлар хавфсизлигини таъминловчи тизим ўртасида технологик ва фойдаланиш бўйича юк ташувчи компаниялар ҳамда инфратузилмадаги жавобгарлик ва вазифаларни ўзаро тақсимлаш.

Демак, юқоридаги мулоҳазалардан келиб чиқиб, транспорт хизмат кўрсатиш жараёнларининг сушт даражада кечишига қуйидаги муаммолар таъсир кўрсатмоқда:

- темир йўл транспортида юк ташиш нархларининг юқорилиги;
- темир йўл вагонларининг 60% га яқин қисми 20-30 йил давомида, 13% эса 30 йилдан ортиқ хизмат кўрсатиб келмоқда;
- халқаро ташувларда 1,5% рефрижератор автомобиллари иштирок этиб (талаб 15-20%), ушбу кўрсаткич темир йўл вагонларининг 4% ни ташкил этади;
- 2017 йилда халқаро ташувларда иштирок этган юк автомобилларининг 68% ишлаб чиқарилганига 15 -20 йил, 10% эса, 20-30 йил бўлган;
- мамлакат автомагистралларининг 70%дан ортиғи транспорт воситаларининг оптимал ҳаракатланиш тезлигини таъминлай олмайди;
- омборхона хўжалиги асосий фондларининг 30 %га яқини жисмоний ва маънавий эскирган;
- юк ортиш-тушириш ишларини механизациялаштириш даражаси 20-30 % ни ташкил этади.

Conclusions

Шундай қилиб, юқоридаги муаммоларнинг олдини олиш мақсадида қуйидаги асосий концептуал йўналишлар белгилаб олиниши, мақсадга мувофиқ бўлар эди:

1. Транспорт хизматлари нархларининг ошиш суръатларини пасайтириш учун қуйидаги чора-тадбирлар амалга ошириш лозим:

– тарифларни белгилаш принципларини ўзгартириш ва босқичма-босқич янги тариф тизимига ўтиш, тузатиш коэффицентлари сонини камайтириш, темир йўл орқали ташишни ҳар томондан маблағ билан таъминлаш турларини

камайтириш;

– ўз локомотив ва вагонларига эга бўлган темир йўл транспортида юк ташишга мўлжалланган хусусий компаниялар ташкил этилиши учун шарт-шароитлар яратиш орқали темир йўлда юк ташиш соҳасида рақобат муҳитини шакллантириш;

– транспорт хизмат кўрсатиш тезкорлиги ва ишончлилигини ошириш, 2030 йилгача электр энергияси билан таъминланган темир йўллар улушини 55 фоизга етказиш. Бунинг учун ҳар йили ўртача 168 км темир йўлни электр энергия билан таъминлаш зарур, сармоялар ҳажми эса 5,34 млрд. долларни ташкил этиши керак. 2030 йилгача локомотив ва вагонларни янгилаш учун 1,2 млрд. долларлик сармоя сарфлаш зарур:

2. Қуйидагилар орқали темир йўл ва автомобиль транспорт хизматларини иқтисодий самарадорлигини ошириш учун минтакаларда мультимодал транспорт-логистика марказлари тармоғини кенгайтириш:

– юк ташиш, интермодал ва мултимодал юк ташишларнинг норматив ҳамда ҳуқуқий базасини, техник ва технологик регламентини ҳамда стандартларини, логистика марказларини, транспорт-экспедиторлик фаолиятини халқаро стандартларга мос ҳолда уйғунлаштириш;

– мультимодал ташишлар самарали бўлишини таъминлаш учун интеграциялашган ахборот тизимини ташкил этиш;

– божхона логистика марказларининг миллий тармоғини шакллантириш, уларда транспорт-логистика операциялари камида 3PL даражада бўлишини таъминлаш лозим.

Шундай қилиб, темир йўл ва автомобиль транспорт хизматларини иқтисодий самарадорлигини ошириш бутун ишлаб чиқариш ва моддий ресурслар тежамини таъминлаш, ишлаб чиқаришнинг жадаллашуви, транспорт харажатларининг камайиши ва иқтисодиёт тармоқларини ривожланишига олиб келади.

List of used literature

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan." // www.lex.uz.

2. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. 2020.

3. Irsbekova M.N. Optimization of the transport services market based on marketing principles. Iqt. fan. doc. ... dis. Avtoref., Tashkent 2017.

4. Zohidov A.A. Improving the mechanism of effective management of the Central Asian transport system. Iqt. fan. doc. ... dis. Avtoref., Tashkent 2018.

5. Елизарьева А.А. Проектный подход к организации пригородных перевозок. // Экономика железных дорог, №5 2017.

6. Ковшова М.М. Конкурентный маркетинг на железнодорожном транспорте // РЖД-Партнёр, 2012. № 9.

7. Вотолевский В.Л., Перспективы развития вокзальных комплексов с. 21-2 //Железнодорожный транспорт, № 3, 2018 г.

ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТНИНГ РАҚОБАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

Ғаниев Уткир Ғуломиддинович

Самарканд давлат тиббиёт университети

режа-молия бўлим бошлиғи

Аннотация: Ушбу мақолада электрон тижоратни рақобатни ривожлантиришдаги ўрни, шунингдек, унинг таҳлили ёритилган.

Abstract: This article discusses the role of e-commerce in the development of competition, as well as its analysis.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль электронной коммерции в развитии конкуренции, а также ее анализ.

Калит сўзлар: электрон тижорат, электрон ҳукумат, Рақамли Ўзбекистон, блокчейн, рақобат.

Keywords: e-commerce, e-government, Digital Uzbekistan, blockchain, competition.

Ключевые слова: электронная коммерция, электронное правительство, Digital Uzbekistan, блокчейн, конкуренция.

Кириш

Жаҳонда ахборот технологияларининг ривожланиши хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги муносабатлар мазмуни ва бизнес юритиш механизмларини жиддий ўзгартирди. Халқаро ҳисоботларга кўра, 2021 йил бошида электрон тижорат дунёдаги чакана савдо умумий ҳажмининг 17,5 фоизини ташкил қилган бўлса, электрон тижорат(ЭТ) айланмаси 4 триллион АҚШ долларига етди¹. Бундан ташқари, пандемия ҳолати электрон бозорнинг йилига 32%гача кенгайишига олиб келди². Электрон савдо улушининг ўсиши муносабати билан унинг монополияга қарши курашни такомиллаштириш зарурияти янада ортди. Бу жараёнларда самарали иктисодий ечимлар тадбиркорлик субъектлари ва истеъмолчиларнинг товарларни электрон шаклда харид қилиш амалиётида мослашувчанликни таъминлашга хизмат қилмоқда.

Дунёда пандемия даврида электрон тижоратнинг ривожланиши, ушбу институтнинг бир қатор сегментлари учун янги савдо каналларини молиявий қўллаб-қувватлаш, электрон тўловларни амалга оширишни иктисодий таъминлаш хусусиятлари, смарт контрактлар, крипто-валюталар, NFT, иктисодий фаолиятда сунъий интеллектнинг иштироки каби электрон

¹ <https://activate.com/outlook/2020>

² <https://s.wsj.net/public/resources/documents/Activate%20Outlook%202021%20presentation.pdf>

тижоратнинг янги институтлари иктисодий режимини яратиш масалалари кенг ўрганилмоқда. Хусусан, электрон иктисодий муносабатлар иштирокчиларининг асосий «рақамли» ҳуқуқларини назарий ва қонуний жиҳатдан таъминлаш, электрон савдо майдончаларининг турли кўринишлари фаолиятини тартибга солиш, виртуал активлар айланиши, интеллектуал мулк объектларини ҳимоя қилиш, электрон молия бозорларида пул ювиш ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашишнинг замонавий талабларини жорий этиш, шахсий маълумотларнинг махфийлигини ва ҳимоясини таъминлаш масалалари тобора долзарб аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистонда қонунчилик ва иктисодий назария АКТ, халқаро электрон айланманинг жадал суръатларда ривожланишидан ортда қолмоқда. молиявий тузилмаларнинг мураккаблиги ва янгилиги иктисодни қўллаш амалиётида ягона ёндашув йўқлигига олиб келди, бу эса бир қатор иктисодий бўшлиқлар ва коллизияларни келтириб чиқарди. Электрон тижорат жараёнида шартномалар тузиш янги, номланмаган шартномалардан фойдаланишни талаб қилади. Ушбу муносабатларнинг қўшимча мураккаблиги уларнинг «хорижий элемент» иштироки билан боғлиқлиги ҳисобланиб, кўпинча тижорат битимлари иштирокчилари турли юрисдикцияларга тегишли бўлади. Шу сабабли, рақамли иқтисодиётга фаол ўтиш келгуси беш йил ичида энг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланди. Бу эса, ўз навбатида, рақамли иқтисодиётни асосий «драйвер» соҳага айлантириб, унинг ҳажмини камида 2,5 баравар оширишга қаратилган ишларни олиб бориш Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси мақсадларидан бири сифатида (25-мақсад) белгиланишига хизмат қилди.

Тадқиқот методологияси

Ўзбекистонда сўнгги йилларда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар ва «Электрон тижорат тўғрисида»ги (2015), «Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида»ги (2004), «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида»ги (2019) қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Электрон тижоратни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги (2018), «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги (2020) қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида»ги (2020) Фармони ва ушбу соҳадаги бошқа қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган вазифаларни амалга оширишга муайян даражада хизмат қилади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Электрон тижоратни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»(14.05.2018)ги, «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»(28.04.2020) ги, «Шартномавий

муносабатларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»(14.09.2021)ги, «Электрон тижорат маъмурчилигини такомиллаштириш ва уни янада ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш тўғрисида»(17.11.2021)ги фармонлари ва қарорлари, шунингдек «Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегияси(ПФ-6079-05.10.2020) каби муҳим ҳужжатларнинг қабул қилинганлиги муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқот натижалари

Бироқ глобал даражада, шу жумладан, ICT Development Index, E-Government Development Index, CyberSecurity Global Index каби рейтингларда, сўнгги беш йил ичида сезиларли ютуқларга эришилганига қарамасдан, мамлакатимиз ҳали ҳам нисбатан юқори бўлмаган ўринларни эгаллаб, электрон тижорат жиҳатидан ривожланган мамлакатлардан анча орқада эканлиги, ўрганилаётган иқтисодий муносабатларни тартибга солиш зарурлигини кўрсатмоқда.

XXI аср бошларидан эътиборан АТнинг жадал ривожланиши, махсус ахборот муҳити–Интернетда ривожланаётган янги ижтимоий муносабатларнинг пайдо бўлишига олиб келди. Мамлакатимизда «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясига мувофиқ иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларини рақамлаштириш, давлат ахборот тизимлари ва электрон хизматларни жорий этиш, шунингдек, рақамли технологиялардан кенг фойдаланишни таъминлаш бўйича халқ таълими, давлат хизматлари, суд, молия ва банк тизимида комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Таҳлиллар

Экспертларнинг фикрича, 2020 йилдан бошлаб йирик банкларнинг қарийб 30 фоизидан ортиғи ўзларининг иш фаолиятида блокчейн технологиясидан фойдаланишни бошлаб юборишди. Бунга блокчейн технологиясининг нисбатан эндигина яратилганига қарамасдан, унинг мавжуд бизнес жараёнлардаги инқилобий ўзгаришларни қамраб олгани молия бозорлари иштирокчилари орасида улкан қизиқиш уйғотганини сабаб қилиб кўрсатиш мумкин.

Шу билан бирга, рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматнинг ривожланиш ҳолатини самарали рейтинг баҳолаш тизими ҳамда уни амалга оширишнинг идоралараро механизмнинг йўқлиги иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларни рақамли трансформацияси ҳозирги ҳолатини чуқур таҳлил қилишга тўсқинлик қилмоқда. Бугунги кунда Ўзбекистонда умуман Интернетда иқтисодий муносабатларни тартибга солувчи қонунчилик, шунингдек ЭТдаги рақобат муҳитини тартибга солиш бўйича ҳам махсус қонунчилик тармоғи мавжуд эмас.

Ушбу соҳадаги турли нуқтаи назарларни таҳлил қилиш ўрганилаётган муносабатларни тартибга солиш бўйича диаметрал ёндашувлар мавжудлигини кўрсатади. Бунда норматив ҳужжатлар даражасида Интернет тармоғидаги барча

муносабатларни тўлиқ тартибга солишдан бошлаб барча иштирокчиларнинг ҳаракатларининг тўлиқ эркинлигигача («қонундан ташқари муҳит») назарда тутилмоқда.

Интернет-иқтисодий муносабатларни иқтисодий тартибга солишнинг тубдан янги тамойилларини ишлаб чиқишга зарурат йўқлигини таъкидлаб ўтиш лозим. Уларни ривожланаётган институтларни мослаштириш ва мавжуд фуқаролик-молиявий парадигмага «локализация қилиш» муҳимдир. ЭТ электрон ахборот алмашинуви орқали фуқаролик-молиявий битимлар ва ташкилий битимларни мунтазам равишда тузиладиган товарларни сотиш бўйича тадбиркорлик фаолияти амалга ошириладиган ижтимоий муносабатлар соҳаси бўлиб хизмат қилади.

Хулоса ва таклифлар

Мазкур ёндашув амалдаги қонунчиликда акс этирилиши керак, хусусан, Ўзбекистон Республикаси «Электрон тижорат тўғрисида»ги Қонунининг 3-моддасига қуйидаги таҳрирда баён этиш зарур: «электрон тижорат деганда, ахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда масофадан тузиладиган ҳамда нотариал ва давлат рўйхатидан ўтказишни талаб қилмайдиган битимлар тузиш ва ижро этишга йўналтирилган фаолият, шу жумладан касбий фаолият тушунилади». Шартномаларни тузиш ва ижро этишнинг махсус шакли сифатида ЭТни тан олган ҳолда, ушбу ҳаракатлар АТ орқали амалга оширилади, деган хулосага келиш мумкин. Бироқ бу муносабатларнинг турига (сотиб олиш ва сотиш, етказиб бериш, ишларни бажариш, хизмат кўрсатиш) қараб, тегишли қоидалар билан тартибга солинадиган битимларнинг иқтисодий табиати ўзгармайди. Мунтазам равишда тузиладиган бундай битимлар ЭТда асосий ўринни эгаллайди. Бундан ташқари, электрон тижорат айланмасини ташкил қилиш ва асосий битимларнинг бажарилишини таъминлайдиган қуйидаги ташкилий битимлар талаб этилади: ахборот-коммуникация тармоғига кириш хизматларини кўрсатиш; товар бозорининг турли шакллари ташкил этиш; ЭТ маблағларини шакллантириш бўйича хизматлар кўрсатиш (масалан, ЭРИ дан фойдаланиш); электрон ҳисобкитобларни амалга ошириш; дастурий таъминотни ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш; турли хил алоқа шакллари қўллаш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПК-6079-сонли қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 августдаги “Ўзбекистон Республикаси миллий статистика тизимини янада такомиллаштириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4796-сонли қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 июлдаги Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-3832-сонли қарори.

Фойдаланилган интернет сайтлари:

1. www.lex.uz
2. www.stat.uz
3. www.antimongov.uz

CHAQALOQ DAVRI KASALIKLARIDA HAMSHIRALIK PARVARISHI KASALLIKLARI

Xo'jayeva Xayitxon Tolipovna

Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi

nutritsiologiya fani o'qituvchisi



Chaqaloqlik davri kasalliklari-pediatriyaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki yangi tug'ilgan chaqaloq anatomo-fiziologik xususiyatlarining o'ziga xosligi jihatidan boshqa yoshdagi bolalardan tubdan farq qiladi. Chunonchi, chaqaloq tashqi dunyoga endi qadam qo'yar ekan, tashqi 82 muhitning turli ta'sirlariga o'ta chidamsizligi bilan ajralib turadi. Har qanday noqulay omillar, parvarishdagi nuqsonlar chaqaloqning turli kasalliklarga chalinishiga sabab bo'lishi mumkin. Bolalik davrlarining ichidagi bolalar o'limining eng ko'p miqdori bola hayotining dastlabki yiliga, birinchi yilning birinchi oyiga, birinchi oyning birinchi haftasiga, birinchi haftaning birinchi kunlariga, birinchi kunning esa dastlabki soatlariga to'g'ri keladi. Demak, bola qanchalik yosh bo'lsa kasallikka qarshilik qobiliyati shuncha past va o'z navbatida o'lim hollari shuncha ko'p bo'lishini nazarda tutish lozim. Shularni hisobga olgan holda, quyida chaqaloqlarda uchraydigan asosiy kasalliklar, ularning sabablari, klinik belgilari, davosi va profilaktikasi haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi

Chaqaloqlik davri kasalliklarining asosiy sabablari va turlari

Chaqaloqlik davri kasalliklarining sabablarini ta'sir etish vaqtiga qarab uch guruhga ajratish mumkin:

1. Antenatal — homiladorlik davri sabablari;

2. Intranatal — tug'ish va uning atrofidagi sabablar;

3. Postnatal — bevosita tug'uruqdan keyingi davrdagi sabablar. Chaqaloqning homiladorlik davrida kasallikka chalinishiga olib keluvchi sabablar ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi: homiladorlikning dastlabki uch oyida ta'sir etuvchi va undan keyin ta'sir etuvchi sabablar. Homiladorlikning dastlabki 3 oyida ta'sir etuvchi sabablar (turli jismoniy va ruhiy travma (jarohat)lar, stress (zarba)lar, o'tkir yuqumli virusli kasalliklar bilan og'rib o'tish, homilaga ta'sir etuvchi dori vositalarini shifokor ko'rsatmalarisiz iste'mol qilish, spirtli ichimliklar ichish, chekish va boshqalar) bolada turli xil tug'ma nuqsonlar paydo bo'lishiga olib keladi (chunki bu davrda bolaning ichki a'zo va tizimlari shakllanayotgan bo'ladi). Homiladorlikning keyingi davrida ta'sir etuvchi sabablar yuqoridagilar va boshqa turli xil somatik kasalliklar, yuqumli kasalliklar (ayniqsa, zaxm, sil, virusli gepatit va boshqalar) bevosita yo'ldoshning barer (himoya) xususiyatlari susayishi natijasida bolaga o'tishi va bola tug'ilganida shu

kasalliklarning klinik belgilari bilan tugʻilishi mumkin. Intranatal davr sabablariga bevosita tugʻuruq jarayonini olib borishdagi turli nuqsonlar (bola oʻlchovlari va tugʻuruq yoʻllarining bir-biriga toʻgʻri kelmay qolishi, turli xildagi tugʻuruq asboblaridan foydalanish hollari, kindikning bola boʻyniga oʻralib qolishi yoki qisilib qolishi, ayolda tugʻuruq kuchlarining susayib qolishi, bolaning notoʻgʻri kelib qolish hollari, uyda va yoʻlda tugʻilish va boshqalar) hamda aseptika va antiseptika qoidalarining buzilish hollari, parvarishdagi turli nuqsonlarni keltirish mumkin. Postnatal davr sabablari esa tugʻuruqni qabul qilib boʻlgandan keyingi davrdagi turli xil salbiy taʼsirlarni oʻz ichiga oladi (asosan, bolani notoʻgʻri parvarish qilish, notoʻgʻri ovqatlantirish, onadagi turli yuqumli kasalliklar va boshqalar). Sabablardan kelib chiqqan holda chaqaloqlik davrida uchraydigan kasalliklar ham shartli ravishda turli guruhlariga ajratilishi mumkin: 1. Tugʻma nuqsonlar - «quyon labi», «yuqori tanglayning bitmay qolishi», turli xildagi yurak nuqsonlari, meʼda-ichak yoʻlidagi turli nuqsonlar va boshqalar. 2. Chaqaloqning nafas faoliyati buzilishi bilan kechuvchi patologik holatlar - asfiksiya, nafas faoliyati buzilishlari sindromi. 3. Tugʻuruqqa aloqador travma (jarohat)lar - tugʻuruq shishi, boshdagi qonli shish (kefalogematoma), turli suyaklar sinishi(oʻmrov, son va boldir suyagi va boshqalar), falajlar (yuz, qoʻl va oyoq asab tolalarining falaji), ogʻir kechgan tugʻuruq vaqtida muskullarning uzilib ketish hollari va boshqalar. 4. Chaqaloqlardagi teri va kindikning yiringli kasalliklari vezikulopustulyoz, chaqaloqlar chilla yarasi, issiqlik toshishi, teri bichilishi, omfalit va chaqaloqlar sepsisi. 5. Chaqaloq va ona qonining kelishmovchiligiga aloqador kasalliklar - chaqaloqlarning gemolitik kasalligi. Quyida ana shu kasalliklardan asosiylari haqida maʼlumotlar keltiriladi.

Chaqaloqlarda teri, kindik kasalliklari.

Sepsis. Chaqaloqlarda birdaniga oʻlim sindromi Chaqaloqlar kindigi va terisining yiringli-septik kasalliklari koʻp uchrashi va amaliy ahamiyati jihatidan hayotining 1-oyini yashab kelayotgan bolalarda asosiy oʻrinlardan birini egallaydi. Kindik va terining yiringli infeksiyasi har xil klinik koʻrinishlarga ega boʻlishi va koʻpincha yosh bolalarda uchraydigan sepsis bilan kattaroq bolalarda boʻladigan ogʻir kasalliklarning manbaiga aylanib qolishi mumkin. Kindik kasalliklari. Chaqaloqlardagi kindik kasalliklari hozirgi vaqtda olib borilayotgan qatʼiy chora-tadbirlar natijasida oldingi davrlardagiga qaraganda ancha kam uchramoqda. Homilador ayollarni vaqtida patronaj qilish, gigiyenik koʻnikmalarni shakllantirish natijasida ularda yiringli-septik kasalliklarning oldini olish, chaqaloqni parvarish qilishni amalga oshirishda aseptika va antiseptika malakalarini oldindan oʻrgatish, poliklinikalarda yosh onalar maktablari faoliyatining yaxshi tashkil etilganligi ogʻir formadagi kindik kasalliklarining kamayishida asosiy omil boʻldi. Etiologiyasi. Kindik kasalliklarining kelib chiqishida hozirgi vaqtda stafilokokklar, streptokokklar, baʼzi hollarda boshqa mikroblar (ichak tayoqchasi, pnevmokokk, koʻk yiring tayoqcha va boshqalar) sabab boʻlmoqda. Bu

xildagi qo‘zg‘atuvchilar kindikka quyidagi hollarda tushishi aniqlangan:

1. Kamdan-kam hollarda ona qornida, yuqorida ko‘rsatilgan infeksiyalar natijasida.

2. Kindik tizimchasi bog‘lanayotgan mahalda, aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilinmaganda (aksariyat uydagi va 95 yo‘ldagi tug‘uruqlarda, xodimlarning mas‘uliyatsizligi natijasida).

3. 2-12 kunlar oralig‘ida parvarishdagi nuqsonlar natijasida (kindik cho‘ltog‘i siydik va axlat bilan ifloslanganda, parvarish asboblari yoki xodimlarning qo‘llaridan infeksiya tushib qolishi va bolaga qarovchilardan havo-tomchi infeksiyalari o‘tishi natijasida). Kindik cho‘ltog‘i tushishi va kindik yarasining bitishi uzoqqa cho‘zilib ketgan hollar bolaning qandaydir infeksiya bilan zararlanganligidan dalolat beradi. Omfalit – aksari yallig‘lanish jarayonining kindik chuqurchasi sohasida yoki kindik atrofidagi teri va boshqa to‘qimalarga tarqalishi bilan xarakterlanadi. Mikroblar ko‘pincha kindik yarasidan kindik tomirlariga o‘tib oladi va kindik arteriyalari hamda venasida o‘rnashgan bo‘ladi. **Klinikasi.** Omfalitning quyidagi asosiy formalari: oddiy, fibrinoz (yiringli), flegmonoz va nekrotik farq qilinadi. Omfalitning «pilchirab yoki namlanib turadigan kindik» degan nom bilan ataladigan oddiy formasi, kindik qoldig‘i tushib ketganidan keyin ham kindik jarohatining hadeganda bitavermasligi, seroz yoki yiringli seroz suyuqlik tomchilari yuziga chiqib turadigan granulatsiyalar bilan qoplanib turishi bilan xarakterlanadi. Bu suyuqlik qotib, qora qo‘tir po‘stlar hosil qiladi va u asta-sekin tushib ketadi. Bunday kindik jarohati bir necha hafta davomida bitadi, bolaning umumiy ahvoli esa deyarli qoniqarli bo‘lib, barcha fiziologik hojatlari (ich qilishi, siyishi, uyqusi, ishtahasi va boshqalar) normada bo‘ladi, tana vazni odatdagiday ortib boradi. Omfalitning yiringli yoki fibrinoz formasi yallig‘lanish jarayonining kindik atrofi va unga yaqin turgan to‘qimalarga tarqalib ketishi bilan xarakterlanadi. Kindik atrofidagi teri qizarib, shishadi va infiltratsiyalanadi, kindik sohasi esa qorin yuzasi ustidan do‘mpayib chiqib turadi. Kindik chuqurchasining tubida esa ko‘pchilik hollarda kichkinagina yara paydo bo‘ladi. Yallig‘lanish jarayoni qorinning oldingi devoriga tarqalib ketishi yoki chegaralangan holda mahalliy bo‘lib qolaverishi ham mumkin. Aksariyat hollarda kindik atrofi bosib ko‘rilganda kindik yarasidan yiring chiqishi kuzatiladi. 96 Flegmonoz omfalit yiringli formalariga unchalik e‘tibor berilmagan hollarda rivojlanadi va infeksiyaning qorin devorining chuqur qatlamlariga kirib borganligidan dalolat beradi. Bunday holat esa bolada peritonit(qorin pardasining yallig‘lanishi) kelib chiqishiga sabab bo‘lib qolishi mumkin. Kasallikning bu formasida bolaning umumiy ahvoli o‘zgarib, tana harorati ko‘tariladi, ishtahasi pasayadi, tana vazni kamayadi, organizmning umumiy zaharlanish belgilari va dispeptik (qayt qilish, ich ketishi va boshqalar) o‘zgarishlar kuzatiladi. Omfalitning nekrotik formasi hozirgi vaqtlarda olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida kamdan-kam hollarda, odatda ozg‘in, qandaydir sabablarga ko‘ra organizmning reaktivligi

pasaygan bolalarda uchraydi. Omfalitning har qanday formasida infeksiyaning kindik tomirlariga o'tib ketish xavfi kuzatiladi, chunki kindik sepsisi aksariyat hollarda mana shu yerdan boshlanib ketadi. Davolash va hamshiraning vazifalari. «Pilchirab turuvchi kindik» yoki omfalitning oddiy formasida faqat mahalliy davolash o'tkaziladi va uni hamshira ambulatoriya sharoitida, bolalar shifokorining nazorati ostida olib borishi ham mumkin. Omfalitning flegmonoz formasi kuchli davolash o'tkazilishini taqozo etadi. Bolaga 10-14 kun davomida ta'sir doirasi keng antibiotiklar, mikroblarning sezuvchanligini hisobga olgan holda sulfanilamid vositalaridan foydalanib davolash olib boriladi. Davolash muolajalari bolaning ahvoriga qarab statsionar yoki ambulator sharoitda o'tkazilishi mumkin. **Profilaktikasi.** Kindikning turli kasalliklarining oldini olishda asosiy e'tibor chaqaloqning tug'ilish jarayonidagi, kindik parvarishi vaqtidagi, ona bilan birga olib boriladigan keyingi parvarish mahalidagi aseptika va antiseptika hamda sanitariyagigiyenik qoidalarning ahamiyati nihoyatda katta. Shularni hisobga olgan holda, tug'uruq zali va bolalar blokida ishlovchi tibbiy xodimlar zimmlaridagi mas'uliyatni to'la his etishlari talab etiladi. Chaqaloq aksariyat vaqtini onasi bilan o'tkazadi. Demak, kasalliklarning oldini olish onalarning qanchalik bola parvarishi haqida mukammal bilim va malakaga ega bo'lishiga bog'liq. Chaqaloqlarda yuqoridagi kindikning yiringli kasalliklaridan tashqari tug'ma kasalliklari ham uchraydi. Bularga terili kindik, 97 amniotik kindik va ko'proq uchraydigan kindik churralari kiradi. Kindik churralari — bunda qorin bo'shlig'idagi a'zolar kindik halqasi yaxshi rivojlanmaganligi natijasida bo'rtib chiqib qoladi. Churra ichida aksariyat hollarda ichak charvisi, ichaklar, kamdan-kam hollarda boshqa a'zolar bo'lishi mumkin. Kichik hajmdagi churralar qorin bo'shlig'iga qaytib kirib ketadi va ko'pchilik hollarda ko'rilgan konservativ choralar (bolani churra kiritib qo'yilgan holatda kuniga 2-3 marta, 2- 5 daqiqagacha yotqizib qo'yish, yuqoriga qarab yotgan mahalida churraning chiqib qolishining oldini olish choralarini ko'rish va boshqalar) natijasida churra teshigi berkilib ketadi. Bordiyu churra hajmi kattaligidan o'zicha bitib ketishining ehtimoli bo'lmasa, uni jarrohlik yo'li bilan davolanadi. Aks holda, ichaklar faoliyati buzilishi, ayrim hollarda esa churraning qisilib qolishidan ichaklar nekrozga uchrab qolishi mumkin. Bolaning tinmasdan yig'lashi, tana haroratining ko'tarilishi, churraning tarang tortilganligi va qorin bo'shlig'iga qaytarishning iloji yo'qligi, qayt qilish va ich kelmay qolishi churraning qisilib qolganligidan dalolat beradi. Bolani darrov jarrohlik bo'limiga yetkazish choralarini ko'ring. Teri kasalliklari – bolalarda ikki xil ko'rinishda: yiringsiz va yiringli yoki piodermitlar (mop – yiring, derma – teri degani) – terining yiringli kasalliklari ko'rinishida bo'lishi mumkin. Terining yiringsiz kasalliklariga chaqaloq va go'daklar terisiga issiqlik toshishi va terining bichilishini misol keltirish mumkin. Teriga issiqlik toshishi – aksariyat hollarda semiz bolalarda, tashqi muhitning harorati yuqori bo'lgani holda bolani ortiqcha o'rab yo'rgaklash, kun issig'ida uzoq vaqt beshiklarga yotqizib qo'yish va boshqa sabablarga ko'ra kelib

chiqadi. Yuqoridagi sabablar natijasida ter bezlari chiqarish yo‘llarining teri shox qatlamidan o‘tuvchi qismlari bekilib qolishi va ana shu yerlarda terning turib qolishi kuzatiladi.

Belgilari – gavda, bo‘yin terisi, tabiiy burmalarda tariq donalariday keladigan mayda pufakchalar paydo bo‘ladi, ularning atrofidagi teri o‘zgarmaydi va qichishmaydi. Bir kecha-kunduzda nom-nishonsiz yo‘qolib ketishi mumkin. Ko‘plab ter chiqib turishi va epidermis butunligining buzilishi piodermiyalar paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. 98 Ushbu holatni bartaraf etish uchun keltirib chiqargan sabablariga qarshi choralar ko‘riladi, bolani uy haroratini normaga keltirgan holda ochib qo‘yiladi, bolalar upalaridan badaniga sepib turiladi. Teri bichilishi – aksariyat chaqaloqlar va hayotining dastlabki oylarini yashab kelayotgan bolalarda uchraydi va tabiiy burmalar, dumba va ko‘pincha jinsiy a‘zolar sohalari bichilishi bilan namoyon bo‘ladi. Teri bichilishi, asosan, tibbiyot xodimlari va ota-onalarning parvarishdagi nuqsonlari natijasidir. Belgilari: bichilishning qanchalik ko‘pligi va tarqalganligiga qarab uch darajasi ajratiladi: I darajali yengil bichilish – bunda terining butunligi buzilmagan, biroz qizarish ko‘zga tashlanib turadigan bo‘ladi. II darajali o‘rtacha og‘ir bichilish – bunda teri anchagina qizargan, shilinish va chaqalanishga moyil sohalarda paydo bo‘lgan va ba‘zi sohalarda eroziyalar hosil bo‘ladi. III darajali og‘ir bichilish – bunda terida qip-qizarish va buning ustiga terining pilchirab, shilingan yuzasidan moysimon suyuqlik chiqib turishi kuzatiladi.

Davolash va hamshiraning parvarishi. Bichilishning davosini o‘tkazish hamshiradan katta mas’uliyat talab etadi. Chunki har bir aytilgan va tayinlangan muolajaning bekamu ko‘st bajarilishini ta’minlash va kuzatish uning zimmasidadir. Davolash jarayonida bolaning erkin yo‘rgaklanishi hammadan muhim hisoblanadi, chunki bunda teri ortiqcha ta’sirlanish va ishqalanishdan saqlanadi. Bichilishning birinchi darajasida qizargan sohalarga streptotsid, talk, bolalar prisipkasi(kukuni) sepib turish, teriga baliq, paxta, kungaboqar, bodom yoki shaftoli moylari (chuchitilgan holda), bolalar kremi surtib turish kerak. Ultrabinafsha nurlardan foydalanish va bolani ochiq usulda davolash yaxshi natija beradi. Bichilishning ikkinchi darajasida teriga 0,25% li kumush nitrat, 0,5% li rezorsin, 1-2% li tanin, 0,1% li rivanol bilan 99 malham qo‘yish, streptotsid yoki bolalar kukuni sepib turish, ochiq holda davolash olib boriladi. Bichilishning uchinchi darajasida esa yuqoridagi muolajalar qunt bilan olib boriladi, ultrabinafsha nurlardan va ochiq usulda davolashdan keng foydalaniladi. Davolashning avvalida turli moylar, malhamlar, primochkalardan foydalaniladi. Terining pilchirashi va suv ajratishi kamaygach, qurituvchi vositalardan foydalaniladi. Bichilishning qanday darajasi bo‘lmasin, davolash jarayonida bolani yo‘rgaklashda kleyonkalarni ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Terining yiringli kasalliklari – bolalarda uchraydigan teri kasalliklarining deyarli yarmini tashkil etadi. Terining yiringli yallig‘lanishiga har xil mikroorganizmlar, ya’ni stafilokokklar (80%), streptokokk (15-18%), ancha kamroq

hollarda ko‘k yiring tayoqchasi, vulgar protey, ichak tayoqchasi va boshqalar sabab bo‘ladi. Bu jarayonlarni aralash streptostafilokokk florasi ham keltirib chiqarishi mumkin. Bola terisining fiziologik xususiyatlaridan biri hisoblangan arzimas jarohat natijasida ham uning oson chaqalanishi, piodermiyalarning ko‘proq kelib chiqishiga olib keladi. Parvarishdagi salbiy nuqsonlar yuqorida sanab o‘tilgan mikroorganizmlarning bola terisiga tushishiga va kasalliklar avj olishiga olib keladi. Piodermiyalarning tug‘uruqxona va bolalarni davolash muassasalarida kelib chiqishi, tibbiyot xodimlarining ishida kamchiliklar sodir bo‘layotganligidan dalolat beradi. Stafilodermiyalarning hammadan ko‘p uchraydigan formalari vezikulopustulyoz, chilla yarasi va emadigan hamda go‘dak bolalarda uchraydigan osteofollikulit hisoblanadi.

Vezikulopustulyoz – chaqaloqlarda bu kasallik hayotining 1-haftasida paydo bo‘lib, tarqoq xarakterga ega bo‘ladi. Kattaligi tariq donasidan tortib to mayda no‘xatdek keladigan, tiniq seroz yoki loyqa suyuqlik bilan to‘lgan, gir aylanasi shishib va qizarib turadigan yuza joylashgan pustula sifatida namoyon bo‘ladi. Pustulalar gavda, qo‘l va oyoq terisida, boshning sochli qismi va yirik tabiiy burmalarda alohida-alohida joylashgan bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Ergasheva V.Sh. “Ovqatlanish gigienasi” o‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent. “Top Image Media” bosmaxonasi 2017 il
2. M.A.Azizov “Umumiy gigiena va ekologiya” Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti 2014
3. M.R.Tilovov, S.O.Turdiev, A.M.Bozorov “Ovqatlanish gigienasi” Toshkent, “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2007 yil
4. S.S.Esonturdiev, M.E.Qarshiboeva “Gigiena va sanitariya tekshirishlar texnikasi” “Ilm-ziyo” nashriyoti, 2007 yil
5. A.Nikbaev “Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiyot statistikasi” Toshkent “Ilm - Ziyo” nashriyoti 2005 yil.
6. G.I.Shayxova “Ovqatlanish gigienasi” Toshkent . “Yangi asr avlodi” nashriyoti 2011yil
7. M.A.Azizov, S.S.Solixo‘jaev, Sh.Q. Qambarova “Gigiena“ Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 2003 y
8. S.T.Tursunov, T.S.Nodirov “Sog‘lom turmush tarzi”. Toshkent, “Ijod dunyosi” nashriyoti, 2003 yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz,
2. www.lex.uz,
3. www.google.uz,
4. www.med.uz,
5. www.referat.uz,
6. www.tma.uz,
7. www.gigiyena.uz.

JIGAR SIRROZI KASALIKLARIDA BEMORLAR PARVARISHI

Xojiyev Azimjon Axmedovich
Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi
Terapiya fani o'qituvchisi



Jigar sirrozi –bu jigar funksiyasining buzilishi. Bunda organizm toksik moddalar bilan kurasha olmaydi, ovqat hazm qilish buziladi, oqsillar, yog'lar, uglevodlar ishlab chiqarilishi va to'planishi kamayadi. Jigar sirrozi ko'pincha 40 yoshdan keyin rivojlanadi. Bolalarda jigar sirrozi hayotning birinchi oylarida virusli infektsiya yoki tug'ma jigar patologiyasi tufayli paydo bo'lishi mumkin.

Eng keng tarqalgan turlari:

- alkogolli jigar sirrozi;
- virusli jigar sirrozi (surunkali virusli gepatitning asoratlari natijasida yuzaga keladi);
- dorivor jigar sirrozi;
- toksik jigar sirrozi (kimyoviy moddalar bilan zaharlanganda paydo bo'ladi).

Sabablari

Bu kasallik paytida jigar to'qimasi biriktiruvchi to'qimaga almashtiriladi, jigar tuzilishi o'zgaradi, natijada jigar yetishmovchiligi rivojlanadi. Sabablari:

- virusli gepatitning oqibatlari (B, C,);
- autoimmun gepatitning ta'siri;
- spirtli ichimliklarni haddan tashqari iste'mol qilish;
- jigar uchun zaharli dorilar;


- o't yo'llari kasalliklari;
- jigarining venoz tiqilishi.

Ko'pincha shifokorlar kriptogen sirrozni qayd etishadi, ya'ni sababini aniqlash mumkin emas bo'lgan sirroz.

Belgilari

Kasallikning klinik belgilariga kelsak, xastalik alomatlari uning qaysi omillar ta'sirida rivojlanganligiga bog'liq emas. Kasallik belgilari sirrozning bosqichlariga bog'liq. Shuni ham unutmasligimiz zarurki, 12 foiz hollarda jigar sirrozi belgilersiz kechishi mumkin. Bu ayniqsa, surunkali alkogolizm aniqlangan kishilarda ko'proq uchraydi.

Sirrozning dastlabki bosqichida kasallik alomatlari aniq namoyon bo'lmasligi mumkin. Dardning aynan shu bosqichida kasallik sabablarini bartaraf etish orqali jigarining sog'lom hujayralarini saqlab qolish va uzoq muddat sog'lom hayot kechirish mumkin. Qorinning kattalashishi (qorinda suyuqlik – assit yig'ilishi sababli), ozib ketish, kuchli holsizlik, ta'sirchanlik, kayfiyatning tez o'zgarishi, ishtahaning kamayishi, burun va milklarning qonashi sirrozning keyingi bosqichlarga o'tganligidan darak beradi.



© MAYO FOUNDATION FOR MEDICAL EDUCATION AND RESEARCH. ALL RIGHTS RESERVED.

Jigar sirroziga xos alomatlar quyidagilardir:

- o'ng yonda kuchli og'riqlar;
- qorin shishishi;
- qattiq charchoq;
- siydikning qorayishi;
- ko'karishlar shakllanishi;
- kaftlarning qizarishi.

Agar sizda ham shunga o'xshash belgilar borligini aniqlasangiz, darhol [shifokorga murojaat qiling](#). Kasallikning oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra

oldini olish osonroq.

Diagnostika

Jigar sirrozini qanday davolashni aniqlash uchun gepatolog quyidagi tadqiqotlarning bir qismini buyuradi:

- [jigar biopsiyasi;](#)
- [qon tekshiruvi;](#)
- [jigar kompyuter tomografiyasi;](#)
- [jigarning magnit-rezonans tomografiyasi;](#)
- [jigar ultratovush tekshiruvi.](#)

Jigar sirrozini davolash

Jigar sirrozini davolashning samarasi kam va kasallikning turiga qarab individualdir. Jigar sirrozi quyidagi dorilar va protseduralar bilan davolanadi:

jarayon faolligini pasaytiradigan sitostatiklar va glyukokortikoidlar;

jigar faoliyati va metabolizmni yaxshilaydigan dorilar;

dezintaksikatsiya terapiyasi;

siydik haydovchi preparatlar ;

antibakterial dorilar.

Jigar sirrozi qayerda davolanadi?

Birinchi alomatlar paydo bo'lganda, kasallikni o'tkazib yubormaslik uchun shifokor ko'rigidan o'tish kerak. Bizning veb-saytimizda siz kerakli mutaxassisni topishga yordam beradigan klinikalarni va bemorlarning sharhlarini topishingiz mumkin. Xizmatlar narxlarini veb-saytimizda to'g'ridan-to'g'ri solishtirish mumkin va aloqa telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib, barcha tafsilotlarni aniqlab olishingiz mumkin.

Parhez

Bemorlarga 5-sonli parhez buyuriladi. Bunda quyidagilar mumkin emas:

- yog'li un mahsulotlari;
- yog'li go'sht va baliq, kolbasa;
- yog'li sut mahsulotlari;
- tuxum;

- sovuq ichimliklar, qora qahva, kakao.



Xavfli jihatlari

Jigar sirrozi quyidagi asoratlar bilan xavflidir:

- assit (qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi);
- oshqozon va qizilo'ngachdan qon ketishi;
- sariq kasal;
- jigar ensefalopatiyasi;
- jigar saratoni.

Oldini olish

Kasallikning oldini olish uchun [shifokorlar](#) quyidagilarni tavsiya qiladilar:

- spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilmang;
- dori-darmonlarni suiiste'mol qilmang;
- jigar kasalliklarini o'z vaqtida davolang.

Adabiyotlar.

- 1. Ziyayeva M.F. Xodjasheva M.D. "Kattalarda hamshiralik parvarishi" 1-qism, "Vorish-nashriyot" Toshkent 2014yil.
- 2. Haydarov G'.O. "Ichki kasalliklar" Toshkent, "Abu Ali ibn Sino" nashriyoti, 2002 yil.

- 3. Kalonova I.M. “Kattalarda hamshiralik parvarishi amaliyoti” o‘quv - uslubiy qo‘llanma, Samarkand, 2008yil.
- 4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlari

Internet saytlari:

- 1. www.med.uz.
- 2. www.minzdrav.uz.
- 3. www.medbook.ru
- 4. www.medicum.ru
- 5. www.ziyonet.uz;

SUV GIGIENASI, SUVNING GIGIENIK EPIDEMIOLOGIK AHAMIYATI

Ahmadjon Bo'taev

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salamatligi texnikumi Anatomiya patologiya va
fiziologiya fani o'qituvchisi*



Suv (kimyoviy formulasi: H_2O) – hidsiz, rangsiz, ta'msiz, shaffof, suyuqlik shaklidagi kimyoviy moddadir (normal holatda). Yer sirtining 71 foizini egallaydi ($\sim 1.460 \times 10^{15}$ killogram); Yerdagi suv asosan okean, dengiz, ko'l, daryo (95,6 %) kabi suv havzalarida, shuningdek muzlar, yer osti suvlari (1.6 %) va atmosferadagi suv bug'lari, bulutlarda (0.001 %) yig'ilgan. Bundan tashqari suv organizmlar tarkibida ham mavjud.

Suv kuchli eritgich hisoblanadi. Tabiatda uning tarkibida odatda eritilgan holdagi moddalar (tuzlar, gazlar) mavjuddir. Yerning geologik tuzilishi tarixi va unda xayotning paydo bo'lishi, fizik va kimyoviy muhit, iqlim va ob-havoning shakllanishida suv muhim ahamiyatga ega. Hech qanday tirik organizm suvsiz hayot kechira olmaydi. Suv qishloq xo'jaligi va sanoatdagi barcha texnologik jarayonlarning zaruriy qismidir.

Suv tabiatda keng tarqalgan. Yer yuzining qariyb 3/4 qismini tashkil qiladi. Hidrosfera – okeanlar, dengizlar, ko'llar, suv havzalari, daryolar, Yer osti suvlari, tuproqlar namini o'z ichiga olgan Yerning suvli pusti 1,4— 1,5 mlrd. km^3 ni tashkil etadi. Atmosferada suv bug', tuman, budut, yomg'ir, qor holatida bo'ladi. Quruqlikning 10 % ga yaqin qismi muz bilan qoplangan. Litosferayaa gidrosferadagiga yaqin miqdorda, ya'ni 1—1,3 mlrd. km^3 suv bor. Yer mantiyasida ulkan miqdorda

(13—15 mlrd. km³) suv bor. Barcha tirik organizmlardagi suv Yer yuzidagi daryolar suvining yarmiga teng. Yerdagi hamma suv bir-biri bilan va atmosfera, litosfera, biosferadagi suv bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi (qarang Suv aylanshii).

Tabiiy sharoitda suv tarkibida doimo erigan tuzlar, gazlar va organik moddalar bo‘ladi. Ular miqdori suvning hosil bo‘lishiga va sharoitiga bog‘liq. Suvdagi tuz konsentratsiyasi 1 g/kg gacha bo‘lsa – chuchuk, 25 g/kg gachasi – tu zli, undan yuqorisi – shur suv deyiladi. Yog‘in Si, chuchuk, ko‘l va dare Si kam mineralli bo‘ladi. Okean suvining sho‘rligi 35 g/kg ga yaqin, dengizniki kamroq, chuchuk suvda N SO", Sa2Q va Mg2Q ionlari ko‘proq. Suvning mineralligi oshgan sari S O, S1~, NaQ va KQ ionlarining konsentratsiyasi ko‘payib boradi.

Tabiiy suvda erigan gazlar – azot, kislorod, karbonat angidrid, asl gazlar, ba’zan, vodorod sulfid, uglevodlar bo‘lishi mumkin. Suvda organik moddalar konsentratsiyasi oz – darelarda o‘rtacha 20 mg/l, Yer osti Sida yanada oz, okean Sida esa 4 mg/l.

Vodorodning 2 ta barqaror izotopi (¹H va ²H) va kislorodning 3 ta izotopi (¹⁶O, ¹⁷O, ¹⁸O) borligi tufayli 9 ta turlicha izotopli S ma’lum. Yerdagi barcha suvda tarkibida vodorodning izotopi – tritiy (³H) bo‘lgan 13 – 20 kg „o‘ta og‘ir“ suv bor (qarang Og‘ir suv).

Suv keng tarqalganligi va uning insonlar hayotidagi ahamiyati kattaligi tufayli qadimdan hayot manbai xisoblanadi. Qad. dunyo faylasuflari fikricha, suv hayot uchun zarur bo‘lgan 4 unsurning biridir (olov, havo, tuproq qatori). Shu bilan birga suv sovuqlik va namlik eltuvchisi deb ham qaralgan. XVIII asrning oxirigacha suvni individual kimyoviy element deb kelindi. 1781—82 yillarda ingliz olimi G. Kavendish Sni ilk bor vodorod va kislorod aralashmasini elektr uchquni bilan portlatib sintez qilgan. 1783-yilda francuz olimi A. Lavuazye bu tajribani takrorlab, suvning vodorod va kisloroddan tarkib topganligini tasdiqladi. 1772-yil francuz fizigi Delyuk suvning maksimal zichligi 4°da bo‘lishini aniqladi. Suvning muhim fizik-kimyoviy xossalari jadvalda berilgan.

Suv – universal erituvchi. Unda gazlar yaxshi erishsh. Suv elektrolit bo‘lganligidan ko‘pgina kislota, asos va tuzlarni eritadi. Suvning o‘zi ham yaxshi eruvchan modda. Vodorod bilan kislorod qo‘shilib suv hosil bo‘lishida issiqlik ajralib chiqadi. $2H_2+O_2=2H_2O$ reaksiyasi 300° temperaturagacha juda sekin boradi. 550° da portlash yuz beradi.

Suv – nihoyatda barqaror birikma. Suv molekulari 1000°dan yuqori temperaturada nihoyatda oz darajada vodorod va kislorodga ajraladi (termik

dissotsiatsiya). 2000°da suvning termik parchalanishi 1,8 %ga, 3092°da 13 %ga, 5000°da 100 % ga yetadi. Suv ultrabinafsha nurlar (fotodissotsiatsiya) yoki radioaktiv nurlar (radioliz) ta'sirida ham parchalanadi. Suv radioaktiv parchalanganda H₂ va O₂ dan tashkari vodorod peroksid hamda bir qator erkin radikallar hosil bo'ladi. Suv birikish va parchalanish reaksiyalariga kirishadi, kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etadi. Suv o'ziga xos g'ayrioddiy (anomal) xossalarga ega: sirt tarangligi yuqori, qovushoqligi kichik, suyuqlanish va qaynash temperaturasi yuqori, suyuq holatdagi zichligi qattiq holatidagidan katta. Q₄°dan yuqori temperaturada ham, undan pastda ham suvning zichligi 1000 kg/m³ dan past bo'ladi. Bu hodisa suvning zichlik anomaliyasi deb ataladi. Toza suvning solishtirma issiqlik sig'imi barcha suyuq va qattiq moddalarnikidan katta (4,18 JG'g); demak, 1 g suvni G isitish uchun boshqa moddalarni isitishga sarflanadigan issiqlikka nisbatan ko'proq issiklik talab qilinadi. Bu suvning issiqlik sig'imi anomaliyasi deb ataladi. Toza suvni ehtiyotkorlik bilan astasekin sovitib borilsa, u Sdan past trada ham (—33°ga qadar) muzlamasligi mumkin, Bunday „o'ta sovigan“ suv barqaror bo'lmaydi; uni silkitilsa yoki ichiga biror kristall tashlansa, darxrl muzlab krladi. Shuningdek, toza suvni astasekin „o'ta isitish“ (Q₂₇°ga qadar) ham mumkinligi aniklangan. O'ta isitilgan suv ham barqaror bo'lmaydi; bir oz chayqatilsa, bunday suv juda ko'p miqdorda bug' hosil qilib qayiydi. Suv molekulasi 2 ta vodorod va I ta kislorod atomidan tarkib topib, bog'lar orasidagi burchak 104,5°.

Suv – keng ishlatiladigan modda. Suv kislorod, vodorod, ishqor, nitrat kislota, spirt, aldegid, so'ndirilgan ohak va boshqa ko'pgina kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish.da ishtirok etadigan kimyoviy reagentdir. Suv bog'lovchi materiallar uchun zarur komponent. Kaynatish, eritish, suyultirish, kristallash uchun texnologik komponent sifatida ko'pgina ishlab chiqarish. jarayonlarida ishlatiladi. Texnikada elektr va issikdik eltuvchi, bug' mashinalarida ish jismi, bosim uzatuvchi sifatida qo'llanadi.

Organizmdagi suv barcha o'simliklar, tirik organizmlar va mikroorganizmlarda moddalar almashinuvi uchun zarur asosiy vosita, shuningdek, bir qancha kimyoviy fermentativ reaksiyalarning substrati hisoblanadi.


Fotosintez jarayonida suv karbonat angidrid bilan birgalikda organik moddalar hosil bo'lishida qatnashadi va shu bilan birga Yerda tirik organizmlar hosil bo'lishi vositasi hisoblanadi. Suv to'qimalar faoliyatini, oziq moddalar va almashinuv mahsulotlari (qon, limfa, o'simliklar sharbati)ning singishini, fizik termoregulyasiyani va hayot faoliyatiga tegishli boshqa jarayonlarni ta'minlaydi. Organizmlarda juda kup miqdorda suv bo'ladi. Odam tanasidagi barcha suyuklik va to'qimalar tarkibida massasiga nisbatan 65 % chamasida suv bo'ladi. Odam ochlikka bir oydan ortiqroq

chidashi mumkin, lekin suv sizlikka bir necha kundan ortiq chiday olmaydi. Suvda organizmning yashashi uchun zarur bo'lgan organik va anorganik moddalar eriydi.

Sanitariya va xo'jalikro'zg'or ehtiyojlari uchun kup miqdorda suv talab kilinadi. Suv markazlashgan sistemadan yetarli miqdorda berilgan takdirdagina yuvindi va chiqindilarni suv kanalizatsiyasi yordamida okizib yuborish mumkin. Aholi yashaydigan joylarning sanitariya madaniyati suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi (kishi.boshiga sutkasiga 1 hisobida). Aholining sog'lig'i va sanitariya yashash sharoitlariga bevosita yoki bil vosita salbiy ta'sir etishi xavfining oldini olishda suvdagi kimyoviy moddalarning eng katta belgilangan miqdorda bo'lishi, ilmiy asoslangan gigiyena normativlari muhim ahamiyatga ega.

Aholi iste'mol qiladigan suv epidemiologik jihatdan xavfsiz bo'lishi kerak. Suvda kasallik qo'zg'atadigan bakteriyalar va viruslar bo'lmasligi lozim.

Kimyoviy va fizik xususiyatlari



Suv molekularining o'rtasida hosil bo'ladigan vodorod aloqalarining modeli
(Burchak 1 = 104,45°)

Suv muammosi

Ma'lumki sayyoramizning 70 % suv bilan qoplangan, bu suvning katta qismi butunlay muzlab qolgan yoki iste'mol uchun yaroqsizdir. Yerdagi chuchuk suvning deyarli uchdan ikki qismini Antarktida muzliklari tashkil etadi. Yerdagi ko'llar va daryolarda taxminan 85 ming kilometr kub suv oqadi, bu suvlarga u yoki bu jihatdan inson ta'sir ko'rsatadi. Ayrim bashoratlarga ko'ra, 2025-yilga kelib 52 ta mamlakat aholisi chuchuk suv tanqisligi muammosiga duch keladilar. YUNESKO Bosh direktori Audr Azuli 2030-yilga kelib dunyoda global suv tanqisligi 40 foizni tashkil etishini ma'lum qilgan^[1]. Sayyoraning turli nuqtalarida daryolarni qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi ko'pgina tashkilotlar mavjud. Yerdagi eng azim daryolar va ularning ekologik xolatini ko'rib chiqamiz.

Suv odam hayotida

Tabiatga kishilarning zug‘umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida ularning yashash tarzi, sog‘ligi, ijtimoiy muhitga bo‘lgan aks ta‘siri tobora halokatli tus olmoqda. Shu sababli insoniyat har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa nizo, kelishmovchiklarni unutib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jiplashuvi hozirgi eng olamshumul zaruriyatdir. Jahonshumul muammolarning shunday bir guruhlari mavjudki, ularning u yoki bu darajada hal qilinishining o‘ziyoq butun sayyoramizdagi ijtimoiy hayotning kelajak davrlaridagi aniq manzaralarini tasavvur qilish uchun imkon beradi. Ulardan biri „Inson – tabiat“ munosabatlari sirasiga kiradigan, xususan, xom ashyo resurslarini tejash, energiya tanqisligini bartaraf etish, aholini oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta‘minlash va tabiatni muhofaza qilishdir. Markaziy Osiyo mintaqasining tabiati va hattoki ijtimoiy muhiti qadimdan tabiat tomonidan in‘om etilgan suv zahiralardan qay darajada samarali foydalanishga qo‘proq bog‘liq bo‘lib kelganligi hech kimga sir emas. Suv o‘rnini boshqa hech bir ne‘mat bosa olmaydi. Ammo insoniyatning bu boradagi ehtiyojlari va mavjud bo‘lgan zahiralar o‘rtasidagi mutanosiblik allaqachon dolzarb muammo darajasiga etganligini ham unutib bo‘lmaydi. Mutaxassislarining fikricha, sayyoramizdagi suv zahiralardan faqatgina 2,5 foizigina ichish uchun yaroqli ekan. Shundan 0,5 foizidan insoniyat o‘z manfaati yo‘lida foydalanmoqda. Ichimlik suvidan foydalanish darajasi aholi miqdorining ko‘payish darajasi bilan bevosita bog‘liq jarayon.

Suvning inson organizmi uchun foydali xususiyatlari

Organizmning 55—65 foizi (yog‘ darajasidan kelib chiqqan holda) yurak, miya va mushaklar suvdan tashkil topgani sabab, shifokorlar kun davomida 8 stakangacha suyuqlik ichish kerakligini ta‘kidlaydi.



Energiya beradi

Charchaganda va og‘riq his qilganda, organizm suvsizlangan bo‘ladi. Bir stakan sovuq suv sizni tetiklashishingiz hamda uyqu ketishiga yordam beradi. Shveysariyada o‘tkazilgan tajribalardan birida, suv ichmagan ko‘ngillilar, boshqa hamkasblaridan ko‘ra o‘zini ikki karra charchagan va parishonxotir his qilgan, shuningdek, kognitiv testlarni ham ikki karra yomonroq bajargan.

Terini tozalaydi

Teri salomatligi uchun doimiy ravishda suv ichishni kanda qilmaslik kerak. Suv qancha ko‘p bo‘lsa, dog‘, husnbuzar va ajinlar ham shuncha kam bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar yaxshi samara beradi

Oson va qiyin mashqlarni bajarish davomida suv ichish kishini energiya bilan ta‘minlaydi. Qolaversa, issiq kunda mashq qilganda kishi odatdagidan ikki karra ko‘p suyuqlik yo‘qotadi. Organizmdagi suv balansi me‘yorda bo‘lishi uchun sport bilan shug‘ullanish va undan keyin suv ichish kerak.

Ozdiradi

Ozishni istaganlarga shirin va gazli ichimliklar o‘rniga suv ichish tavsiya qilinadi. Ovqatdan avval suv ichish ishtahani bo‘g‘adi va kamroq ovqatlanishga yordam beradi. Bu o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham aniqlangan. Unda ortiqcha vazndan aziyat chekadigan kishilar har gal ovqatdan avval ikki stakandan suv iste‘mol qilgan. Natijada 2,26 kilo vazn yo‘qotgan va boshqalarga qaraganda vaznini me‘yorda saqlashga muvaffaq bo‘lgan.

Og‘riqlarning yo‘qolishiga hissa qo‘shadi

Muntazam ravishda suv ichish mushak va suyaklardagi og‘riqlarni kamaytirishi mumkin. Suv nafaqat bo‘g‘inlarni yumshatadi, balki orqa miya va bosh miya hujayralarini ham himoya qiladi.

Shifobaxsh

Shifokorlar tana harorati ko‘tarilganda, diareya va ko‘ngil aynishida suv ichishni kanda qilmaslikni tavsiya qiladi. Bu bejizga emas, suv kishi o‘zini yaxshi his qilishiga hissa qo‘shadi. Bosh og‘rig‘ining bor nechta turidan qutulishga yordam beradi. Migren bezovta qilganda bir stakan suv, meva yoki sut iste‘mol qilish tavsiya qilinadi.

Og‘ir kasalliklar xavfini kamaytiradi

Olimlar suv ichish bilan siydik pufagi, yo‘g‘on ichaklar saratoni o‘rtasida aloqadorlik borligini aniqlagan. Shuningdek, suv ichish yurak faoliyati uchun ham foydali.

Organizmning hayot uchun muhim bo‘lgan funksiyalari uchun

Suv — so‘lak ajralishi, hazm jarayoni uchun muhim sanaladi, gormonlarni, tana haroratini nazorat qiladi, tanani kislorod bilan ta‘minlab, hujayralar salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, peshob va ter ajralishi orqali organizmdan ortiqcha narsalar chiqib ketishiga yordam beradi.

TUZLARNING XALQ XO'JALIGI VA SANOATDAGI AHAMIYATI

Abduhalilova Laylo Ruslan qizi

Toshkent shahar Olmazor tumani

Abu ali ibn sino maktabi 8- "A" sinf o'quvchisi

Telefon: +998943521281

Abduhalilovalayloxon@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada tuzlarning xalq xo'jaligi va sanoatdagi ahamiyati, ularning hayotimizdagi tutgan asosiy o'rni va turli xil tuzdan tayyorlangan mahsulotlar, ularning bizga foydalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: NaCl, Silvinit, temir sulfid, CaCO₃.

Ushbu mahsulotdan foydalanish Xitoy imperatori Xuangdi davridan boshlandi. Odamlar iste'molida foydalanish uchun tasdiqlangan birinchi sho'rliklardan biri viloyatning shimolida tog'lar va sho'r ko'llar bilan to'la joyda joylashgan. Birinchi bo'lib imperiya davrida patrisiylar ushbu mahsulotga asosiy ahamiyat berib, har bir inson oddiy tuzning bir qismidan foydalanish huquqiga ega bo'lishini talab qilishgan.

Feodallar ham, keyinchalik monarxlar ham tuzning ahamiyatini anglagan, tuzni ishlatish va ekspluatatsiya qilish uchun soliqlar undirilgan qirol xazinasining eng muhim daromadlaridan biriga aylangan.

Tuzni qayta ishlashning eng qadimgi dalillaridan ba'zilar miloddan avvalgi 6000-yilga to'g'ri keladi, hozirgi Ruminiya hududida yashovchi odamlar tuzlarni olish uchun buloq suvini qaynatgan; Xitoyda tuz zavodi taxminan xuddi shu davrga to'g'ri keladi.

Tuz, shuningdek, qadimgi ibroniylar, yunonlar, rimliklar, vizantiyaliklar, xetliklar, misrliklar va hindlar tomonidan qadrlangan. Tuz muhim savdo ashyosiga aylandi va qayiqda O'rta er dengizi bo'ylab, maxsus qurilgan tuz yo'llari bo'ylab va Sahroi Kabir bo'ylab tuya karvonlarida tashildi. Tuzning tanqisligi va umumbashariy ehtiyoj xalqlarni u uchun urushga olib keldi va undan soliq tushumlarini oshirish uchun foydalanishga majbur qildi.

Oziq ovqat sanoatida baliq, go'sht, o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda esa konserva ishlarida yog'ishlab chiqarishda qisman konserva mahsulotlari tayyorlashda va boshqa xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Oziq-ovqat maqsadlari uchun dunyo miqyosida ishlab chiqariladigan tuzning 60-45%

qo'llanilsa qolgan 35-40% i esa har xil sanoat tarmoqlarida jumladan kimyo sanoati tarkibida Na yoki Cl⁻ ionlar bo'lgan birikmalar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Ishlab chiqarishining 1500 ta sohasi mavjud bo'lib ularning hammasida boshlang'ich modda sifatida osh tuzi yoki unng hosilalari ishlatiladi.



O'lik dengiz sohilidagi tuz konlari



And tog'laridan Boliviya atirgul tuzi

Osh tuzining xo'jalikdagi asosiy xususiyati.

- farmatsevtika oziq-ovqat shunigdek, rezin, gurgurt, sovun olishda ishlatiladi.
- Osh tuzi xalq xo'jaligida soda ishlab chiqarishda ishlatiladi.
- Hamma bilganidek, tuz kundalik hayotda xam, ayniqsa ovqatlarga ta'm maz'a berishda muhim ahamiyatga ega.
- Konservlash ishlarida
- soda olishda
- Sovun olishda

Tuz tuz konlaridan qayta ishlanadi va dengiz suvi (dengiz tuzi) va minerallarga boy buloq suvlari sayoz hovuzlarda bug'lanadi. Uning asosiy sanoat mahsulotlari kaustik soda va xloridir; Tuz ko'plab sanoat jarayonlarida, shu jumladan polivinilxlorid, plastmassa, qog'oz xamiri va boshqa ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Dunyoda yillik ikki yuz million tonna tuz ishlab chiqarishning taxminan 6 % inson iste'moli uchun ishlatiladi.

Boshqa maqsadlarga suvni tozalash jarayonlari, avtomobil yo'llarini muzdan tushirish va qishloq xo'jaligida foydalanish kiradi. Ovqatlanish mumkin bo'lgan tuz dengiz tuzi va osh tuzi kabi shakllarda sotiladi, ularda odatda yopishishiga qarshi vosita mavjud va yod tanqisligining oldini olish uchun yodlangan bo'lishi mumkin. Ovqat pishirishda va dasturxonda qo'llanilishi bilan bir qatorda, tuz ko'plab qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarida mavjud.

Tuzli suvning foydali xususiyatlari:

- Yaralarni davolashni tezlashtirish uchun
- Og'izni yuvish vositasi sifatida
- Infektsiyalarga qarshi kurashish
- Ovqat hazm qilishni yaxshilaydi
- Ko'zlaringiz charchamasligi uchun

Tuzli vanna uchun 250-300 gr. dengiz tuzini issiq suvda eriting. Tuz miqdorini 1,5-2 kilogramga qadar ko'paytirish mumkin. Bu kabi vannalar asablaringizni tinchlantiradi, qon aylanishini yaxshilaydi, ortiqcha vazn bilan kurashadi. Og'riq qoldiruvchi kuchga ham ega.

Tuzlarning sanoatda ishlab chiqarish texnologiyalari

Bugungi kunda tuzni olishning uchta asosiy usuli mavjud: dengiz suvidan bug'lanish, yerdan qazib olinadigan tuz. Dengiz suvi bug'lanishi orqali ixtisoslashgan tuzlar hali ham ishlab chiqariladi; sanoat maqsadlarida ishlatiladigan tuzlar qazib olish yo'li bilan olinadi. Xitoy eng yirik ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. 220 million tonna tuzdan faqat 6 foizi inson iste'moli uchun ishlatiladi.

Sanoatda turli metallar va boshqa tuzlarni olishda ham ken foydalaniladi. Masalan, temirning sulfidli tuzlaridan cho'yan va Po'lat olinadi.

Respublikamiz hududida xalq xo'jaligida turli maqsadlarda ishlatiladigan tuzlarning tabiiy zaxiralari aniqlangan.

Marmar(CaCO_3) nurota va g'ozg'on konlaridan olinadi.

Osh tuzi(NaCl) va silvinit($\text{NaCl}\cdot\text{KCl}$)

Xo'jaikon, Tubokat, Borsakelmas, Boychibakon, Oqqal'a konlaridan qazib olinadi.

Kalsiy, temir, kaliy, natriy va boshqa ko'plab metallar tutgan tuzlar tibbiyotda turli kasalliklarga qarshi dori vositalari sifatida qo'llanadi. Azot, fosfor, kaliy, oltingugurt, kalsiy mikroelementlar deb nomlanuvchi metallar guruhini tutgan tuzlar qishloq xo'jaligida o'g'itlar, ba'zi zararkunandalarga qarshi kurash vositalari, unuvchanlikni va hosildorlikni oshiruvchi, o'stiruvchi vositalar sifatida keng qo'llaniladi.

Karbonat va silikatlardan qurilish ishlarida turli maqsadlarda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, tuzsiz insonning hayotini tasavvur qilish qiyin. Deyarli, kanımızda foydalaniladigan narsalarimizning hammasini tuz tashkil qilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 8-sinf kimyo darsligi
- uz.m.wikipedia.org
 - fayllar.org
 - https://uzpedia.uz/pedia/tuzlar

O‘ZBEKISTONDAGI IFLOSLANGAN SUV HAVZALARI VA ULARNI
TOZALASH CHORA TADBIRLARI

Abdukarimova Dildora Otabek qizi

Abu Ali ibn Sino maktabining 8-A sinf o‘quvchisi

+998505045309

dildoraabdukarimova516@gmail.com

Annotasiya: Suv havzasi — yer yuzasining tabiiy yoki sun’iy pastqam yoki chuqur joylarida tabiiy yoki sun’iy ravishda suv to‘planishidan hosil bo‘ladigan, yo bo‘lmasa, suv yo‘lini to‘sib va to‘g‘on qurib hosil qilinadigan sekin oqar yoki oqmas suv manbai. Suv havzasi doimiy yoki mavsumiy (seryog‘in yillarda paydo bo‘ladigan) turlarga bo‘linadi. Doimiy Suv havzasiga okeanlar, dengizlar, daryolar, ko‘llar, tabiiy suv omborlari, jilg‘alar, ariklar va boshqa kiradi. Mavsumiy (vaqtinchalik) Suv havzasi sun’iy suv omborlari, kanallar, hovuzlar va boshqalardan iborat. Masalan, O‘zbekiston hududidagi Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq daryolari tabiiy Suv havzasi, Toshkent dengizi, Chorvoq suv ombori, Andijon suv ombori va boshqa sun’iy Suv havzasi hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib suv havzalarining ifloslanishi faqat O‘zbekistonning oldida turgan to‘siq emasligi barchamizga ayon. Suv havzalarining ifloslanishi natijasida O‘zbekistonning ko‘p hududlari suv tanqisligiga ey berishi mumkun.

Kalit so‘zlar: suv havzalari; suv; ifloslanish; tozalash ; hovuzlar; kanallar

Kirish

Ma`lumki, minglab yillar davomida ajdodlarimiz suvni muqaddas bilib, suvga ifloslangan ko‘r bo‘lasan degan so‘zlarni qonun sifatida ko‘rib, suvni e‘zozlashgan, undan oqilona foydalanishgan, ariqdagi suvlardan bemalol ichimlik suv sifatida foydalanishgan. Keyinchalik sanoat va agrokulturaning rivojlanishi natijasida turli kimyoviy vositalarning qo‘llanilishi natijasida suvlar ham yaroqsiz holga keldi. Natijada suv va suvdan foydalanishni ham davlat tomonidan nazorat qilish nafaqat zarur, balki shart bo‘lib qoldi. Bu esa ichimlik suvlarining ifloslanishi manbalarini aniqlash, ularni zararsizlantirishning samarador usullarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratish zarurligini anglatadi va u hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Suv havzalari antropogen ifloslanishining asosiy manbalari har — xil bo‘lib, ularning eng muhimlari qo‘yidagilar hisoblanadi:

Sanoat va maishiy, kommunal xo‘jalik korxonalaridan hamda davolash-sog‘lomlashtirish va boshqa tashkilotlardan chiqadigan iflos oqava suvlar; yuvuvchi sintetik moddalar; rudali va rudasiz qazilma boyliklarning qazib olinishidagi chiqindilar; shaxtalarda, konlarda, neft korxonalarida ishlatilgan va ulardan chiqqan

iflos suvlar; avtomobil va temir yo'l transportlaridan chiqqan tashlama suvlar; yog'och tayyorlash, uni qayta ishlash va suvda oqizishda, tashishda hosil bo'ladigan chiqindilar; chorvachilik fermalari va komplekslaridan oqib chiqadigan iflos suvlar; qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish natijasida vujudga kelgan oqava tashlandiq va zovur suvlari.

Neft sanoati tarmoqlaridan neftni olish tashish va uni qayta ishlash va suv havzalarining ifloslanishida asosiy sababchilaridan biridir. Suv ostidan neftni olishda achinarli hodisalar ro'y bermoqda. Masalan, Santo Barbaradagi birinchi neft qudug'i 10 sutkada 900 tonna neft yo'qotgan. Bir qancha neft tankerlari halokatga uchrab okeanga ming- ming tonna neft to'kgan. Natijada necha ming tonna suv yuzasi yupqa neft pardasi bilan qoplangan. Kimyo sanoatida sintetik yo'l bilan ishlab chiqariladigan bo'yoq, portlovchi modda va turli xil dori- darmon kauchuk sun'iy tola va boshqalar toza suvni ko'p miqdorda talab qiladi. Oqibatda bunday ishlab chiqarish manbalaridan chiqqan iflos suvlar tarkibida tabiatda uchramaydigan zararli moddalr ham uchraydi.

Muhokama va natija

Suvni tozalash — suv ta'minoti manbalari (daryolar, ko'llar, suv havzalari, suv omborlari va boshqalar)dan vodoprovod tarmog'iga kelib tushadigan suvning sifatini belgilangan me'yorga keltirish uchun mo'ljallangan texnologik jarayonlar majmui. Sanoat korxonalarini va maishiy korxonalardan chiqadigan oqova suvlarni tozalashni ham o'z ichiga oladi. [[Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidagi, korxonalaridagi muxandislik inshootlari yordamida hamda biologik va kimyoviy usullarda amalga oshiriladi.

Yer yuzasidagi tabiiy suv manbalari (daryolar, ko'llar va boshqalar) suvini vodoprovod tarmog'iga yuborishdan oldin tindiriladi, tiniklashtiriladi va zararsizlantiriladi. Tozalash inshootlarida tindirish va tiniklashtirishda suv tarkibidagi muallaq va kolloid (mayda) zarralar suv tagiga chukadi, suvga maxsus idishlarda alyuminiy sulfat va xlorli temir bilan ishlov beriladi, suv shag'al, qum qavati, ba'zan esa g'ovak sopol filtrdan o'tkaziladi. Tiniq suvni zararsizlantirish (turli mikroorganizm va viruslarni o'ldirish) uchun unga suyuq yoki gaz holatdagi xlor, gipoxloritlar — NaClO, Sa(SYU)₂ va xlor qo'sh oksid S1O₂, xlorli ohak qo'shiladi, tindirilgan suv va yer osti suvlarini zararsizlantirish maqsadida, shuningdek, ozon va ultrabinafsha nurlar ham qo'llanadi. Bunda simobkvarli yoki argonsimobli lampalardan foydalaniladi. Agar suv qattiq (tarkibida kalsiy va magniy tuzlari umumiy miqdori me'yordagidan yuqori) bo'lsa, yumshatiladi (qarang Suvni yumshatish). Yer osti suvlari ko'pincha aeratsiya usulida temirsizlantiriladi (havo kislorodi bilan boyitiladi). Suvni kremniysizlantirish (metasilikat kislota H₂SiO₃ va uning tuzlari miqdorini kamaytirish) uchun ohak, natriy alyuminat NaAlO₂, ba'zan kuydirilgan dolomitdan foydalaniladi. Suv tarkibidagi boshqa erigan tuzlarni ketkazish uchun u chuchuklashtiriladi (qarang Suvni chuchukpashtirish) yoki ionitlardz. tuzsizlantiriladi.

Suv tarkibidagi vodorod sulfid, metan, radon, karbonat angidrid va boshqa erigan gazlarni ketkazish uchun suv degazatsiyalanadi (qarang Degazatsiya). Suv tarkibidagi ortikcha ftorni kamaytirish uchun suv faollashtirilgan alyuminiy oksid orqali suzib o'tkaziladi. Agar suv tarkibida radioaktiv moddalar borligi aniklansa, u dezaktivatsiyalanadi (qarang Dezaktivatsiya). Agar suvda noxush hid bo'lsa, faollashgan kumir, ozon, kaliy permanganat yoki xlor ko'sh oksid bilan ishlanadi (qarang Sorbsiya).

Oqova suvlar (sanoat korxonalarini, maishiy korxonalar va turar joylardan chiqadigan iflos suvlar) va yog'in suvlarni tozalash masalalari tabiatni mahofaza qilishning muhim bir qismi hisoblanadi. Oqova suvlar tarkibidagi balchiq, kolloid va erigan moddalar tindirgichlarda cho'ktiriladi, zararli moddalar biologik usullarda zararsizlantiriladi (qarang Biologik suzgich, Suvni zararsizlantirish), korxonalardan chiqayotgan suvlar tozalash inshootlarida tozalanadi. Suvni tozalashning fizik-kimyoviy, termik va boshqa usullari ham bor.

Tabiiy suvlarni sanoatda qo'llanadigan usullar yordamida mikroorganizmlar, tuzlar va gazlardan butkul tozalashning imkoni yo'q. Shu sababli ularning ichimlik suvidagi miqdori belgilangan ma'lum me'yordan ko'p bo'lmasligi talab etiladi. Masalan, ichimlik suvining 1 ml dagi mikroorganizmlarning umumiy soni 100 tadan oshmasligi, ichak tayoqchalari guruhi bakteriyalarining soni 3 tadan oshmasligi shart. Suvning umumiy qattiqligi 7 mmol/l gacha, quruq qoldiq 1000 mg/l gacha, vodorod ko'rsatkichi — rayon 6,0 dan 9,0 gacha bo'lishi kerak. Ayrim hollarda ichimlik suvining qattiqligi 10 mmol/l gacha, quruq qoldiq 1500 mg/l gacha, temir va marganets ionlarining miqdori tegishli 1 va 0,5 mg/l gacha bo'lishiga ruxsat etiladi.

O'zbekiston shahar va tumanlarida suv ta'minoti markazlashtirilgan. Aholiga beriladigan ichimlik suvi yuqorida aytilgan usullarda tozalanadi, sanitariya ko'rigidan o'tkazib turiladi. Bu ish bilan shahar va tuman sanitariyaepidemiya st-yalari (SES) shug'ullanadi. Yirik sanoat va maishiy korxonalarining oqova suvlari mahalliy tozalash inshootlarida tozalab chiqariladi.

Xulosa

Suv — dunyoda boshqa muqobili yo'q, bebaho ne'mat, tiriklik manbai. Suvdan foydalanishda tejamkor bo'lish, uni isrof qilmaslik insoniy burchdir. Bundan madaniyatni bolalikdan shakllantirish, yoshlarni suvga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga o'rgatish juda muhim. Bugun atrofimizda ro'y berayotgan suv bilan bog'liq ekologik muammolar barchamiz uchun ogohlik qo'ng'irog'i hisoblanadi. Bundan har birimiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantirishimiz zarur. Zero, global muammolar, aslida, kichik e'tiborsizliklardan kelib chiqishini unutmaylik. Bugun bizga hayot va zavq ulashayotgan toza ichimlik suvidan kelajak avlod ham bizdek bahra olishga haqli.



Foydalanilgan adabiyotlar:

<http://oldconf.neasmo.org.ua>

8-sinf kimyo darslik

<https://staff.tiame.uz>

O'ZBEKISTON TUPROQ ZONALARI VA ULARNING
TARKIBIDAGI KISLOTA MIQDORI

Sulaymonova Maftuna Maqsudovna

Abu Ali ibn Sino maktabi 8-A sinf

912400220

maftunabonusulaymonova@gmail.com

Olmazor tumani Abu Ali Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab

Kalit so'zlar: tuproq, kislotalilik, zona, o'g'it, o'simliklar, pH, kislota,

Kirish: Hozirgi paytlardagi eng og'riqli muammolardan biri tuproq'imizning sho'rligi, hosildorlik muammolari. Biz aynan bu maqolada tuproqning nima ekanligini, tuproq zonalari va ularning tarkibi, xossalari va eng muhimi uning kislotalanish sabablarini ko'rib chiqamiz. Tuproq bizning eng muhim ob'ektimiz hisoblanadi. U bizga meva berayotgan o'simliklarimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Tuproq– tog' jinslarining parchalanishi yoki fizik-kimyoviy o'zgarishlar hamda unda joylashadigan biologik faoliyat qoldiqlari natijasida hosil bo'lgan yer qobig'ining biologik faol sirt qismi ya'ni yerning tashqi qatlami. **Tuproq zonalari**– tuproq tiplari va qishloq xo'jaligi ekinlarini hududda ravnaqlashtirishda qat'iy birlik sifatida qo'llaniladi. Bu tushunchani dastlab V.V. Dokuchayev va N.M. Simbirsev aniqlagan. Yer yuzida Shimoliy yarimsharlarda quyidagi gorizantal tuproq zonalari uchraydi: tundra tuproqlari, podzol tuproqlari, o'rmondasht tuproqlar, qora tuproqlar, kashtan tuproqlar, cho'l tuproqlar, sur va qizil tuproq zonalari uchraydi. **Tuproqning turlari**– toshloq yer, qumli zamin, ohaktoshli zamin, gil, chirindi tuproq, nam tuproq, torf tuproq, sho'rlangan tuproq turlari mavjud. **Tuproqning kislotaliligi**– uning kislotalar xossalari namoyon qilish qobiliyati hisoblanadi. Agar biz tuproqning kislotaliligini oshirib yuborsak quyidagi muommolar kelib chiqadi:

○ Kuchli gidroksidli tuproq mineral o'g'itlarning ildizlar tomonidan so'rilishiga halaqit beradi natijada o'simlik rivojlanishdan to'xtaydi, gullamaydi va hattoki nobud bo'ladi.

○ Yuqori kislotalilik ta'sirida yer yuzida zararli moddalar paydo bo'ladi: aluminiy va marganes bu esa o'simlikning o'sishiga yo'l qo'ymaydi.

Tuproqning kislotalanish sabablari– bu ko'pincha juda ko'p yog'ingarchilik tushadigan joylarga xosdir. Bunda kalsiy va magniy tuproqdan yuvilib, tuproq zarralaridagi kalsiy va magniy ionlari vodorod ionlari bilan almashinadi, kislotalanadi. Undan tashqari ammoniy sulfat yoki oltingugurt kabi mineral o'g'itlarni qo'llash ham tuproqni kislotalashi mumkin va 1 Kv metrga 1.5 kg baland torf yoki 3 kg go'ngni kiritish tuproqning kislotaliligini bir marta

oshiradi. Odatda har 3-5 yilda bir marta kislotaliligini tekshirish va kerak bo'lganda uni ohaklash tavsiya etiladi. Tuproqning kislotaliligini aniqlash usullari:

- lakmus testli qog'oz chiziqlaridan foydalanish
- ba'zi rezavorlar va bog'dorchilik ekinlarining barglaridan tayyorlangan damlama
- Asbob (pH o'lchagichlar yoki tuproq probi)



Bundan xulosa qilib aytish mumkinki tuproqning ahamiyati insonlar uchun shuncha katta ekan, tuproqdan qanday foydalanishimiz bu esa o'zimizga bog'liq, tuproq uchun salbiy taraflarni bartaraf etib ko'proq ijobiy ta'sirlarni ko'rsatishga harakat qilishimiz lozim. Buning uchun o'simliklar muhim ahamiyatga ega. Bir xil o'simliklar neytral tuproqni tanlasa, boshqa o'simliklar esa kislotali tuproqni afzal ko'rishi mumkin. Tuproqning tarkibi esa kelajakda o'simlikning o'sishi uchun muhim sharoitlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://e-library.namdu.uz>

<https://uz.insterne.com/>

"O'zbekiston tuproqlari va ularning evolyutsiyasi" kitobi

“BOLAGA NISBATAN QADRYATLI MUNOSABAT OTA ONALIK MUVAFAQIYATINI TA‘MINLAYDIGAN OMIL SIFATIDA”

Saidova Farog‘at

Urganch Davlat Universiteti

Psixologiya ta‘lim yo‘nalishi 231-guruh

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarga nisbatan munosabatlar, qadiryat tushunchasi hamda, ota onalik mas’ulatlari nimadan iborat ekanligi haqida so‘z boradi. Oila bu muqaddas qo‘rg‘on farzandlarimiz esa kelajagimiz davomchilaridir. Bolaga nisbatan har qanday qadryatli munosabat albatta ota onalik muvofaqiyatini ta‘minlaydigan omildir.

Kalit so‘zlar: Qadryat tushunchasi, bolaga nisbatan munosabat, oilaviy tarbiya jarayonlari, ota-onalik burchi, ota-onaning bolaga nisbatan munosabat jarayonlari, ota onalik muvofaqiyati.

Аннотация: В этой статье рассказывается об отношениях между детьми, понятии ценности, а также о том, в чем заключаются проблемы родительства. Семья – это священная крепость, а наши дети – наследники нашего будущего.

Ключевые слова: Понятие ценности, отношение к ребенку, процессы семейного воспитания, родительский долг, процессы отношения родителей к ребенку, успешность родительства.

Abstract: This article talks about the relationship between children, the concept of value, and what are the problems of parenthood. The family is a sacred fortress, and our children are the successors of our future.

Key words: The concept of value, attitude towards the child, processes of family education, parental duty, processes of parents' attitude towards the child, success of parenthood.

Ota-onani bolaga munosabati nisbatan turli xil his-tuyg‘ular tizimi, u bilan muloqot qilishda qo‘llaniladigan xatti-harakatlar stereotiplari, bolaning tabiati va shaxsini, uning harakatlarini idrok etish va tushunish xususiyatlari xisoblanadi. Ota-ona tashkilotlari va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar nutqiy, psixologik va ijtimoiy holatlarimizga ta‘sir ko‘rsatadigan ahamiyatli muxim muloqotlar hisoblanadi. Bunda ota-ona tashkilotlari va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarini aniqlashning metodik taxlillari juda muhimdir. Bu mavzuga oid birinchi taxlil, ota-ona tashkilotlari va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni asoslangan qonunlar va qoidalarga muvofiq ravishda bajarilishini amalga oshirishdir. Ikkinchi taxlil, tarbiyalash jarayonida tashkilotning

qo‘llabquvvatlash va yordam olish tizimini belgilashdir. Uchinchi taxlil, ko‘plab matbuot veb-saytlari, radio va telekanallar tarqatilgan axborot materiallari, yangiliklar va maqolalar yordamida o‘tkaziladigan ilmiy-praktik seminarlar, tajriba almashish tadbirlari yordamida bolalar muammosini psixologik o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilishi kerak. To‘rtinchi taxlil, bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun ko‘plab psixologik va sotsiologik o‘zgaruvchilar yordamida ham rivojlanishlarini oshirish kerakdir. Bu o‘zgaruvchilar mutaxassislar yordamida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Oilada farzand tug‘ilishi, uning soni va tarbiya berish imkoniyatlari masalasi har doim ham dolzarb bo‘lgan. Lekin ayrim G‘arb davlatlarida, jumladan, Rossiyada oilada bola sonining keskin kamayib ketishi munosabati bilan er-xotinning reproduktiv huquqi, madaniyati va xulqi masalasi ayni davrda o‘ta dolzarb masaladir. Rus olimi S.P.Kapisaning (1999) pessimistik bashoratiga ko‘ra, Rossiyada 1995–2025 yillar oralig‘ida tug‘ilishning kamayishi 2 mln.dan (optimistik bashorat) 32 mln.gacha tushib (pessimistik bashorat) ketadi, bu raqamga 1995 yilgi 147,9 mln. aholi soni asos qilib olingan. Shuning uchun jahon olimlari, Xalqaro aholishunoslik jamg‘armalari (jumladan, YuNFPA, YuNISEF) oilada sog‘lom bola tug‘ilishi siyosati orqali Yer yuzining turli mintaqalarida reproduktiv xulqni muvofiqlashtirish masalasiga alohida e‘tibor berib, konkret tadqiqotlar o‘tkazmoqda. Bunday asosiy muammo – onaning reproduktiv xulqini boshqarish va muvofiqlashtirish, uning salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom zurriyod tug‘ilishini kafolatlashdir. Reproductiv xulq – bu oilada farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq xulqdir. U oila a‘zolarini o‘z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatidir. Bu harakatlarning asl motivi avvalo insondagi o‘zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo‘lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi. Rossiyalik ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra, ular xohlagan bola soni (2,8) real bolalar sonidan ancha ortiq. Shundan A.Antonov, ayni davrda odamlar o‘z reproduktiv vazifalarini ado etmayptilar, deb xulosa qiladi. Ko‘pincha, reproduktiv xulqning motivlari odamning boshqa turdagi faoliyat motivlari ta‘sirida so‘nib bormoqda, avvalo bu harakat oilada sodir bo‘lsa-da, u ayol kishining shaxsiy ishiday tasavvur etiladi va ayolning bola tug‘ib berish orqali o‘zini namoyon etishi, erining munosabatlarini keskin o‘zgartirish, unga ta‘sir (tazyiq) ko‘rsatish, ustidan hukmron bo‘lish, kimnidir sevish va unga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojini qondirishga borib taqaladi. Material va metodlar: “OILAVIY RASM” TESTI Pedagoglar va psixologlar oila muammolari, uning an‘analari va udumlarini, oilaning bola shaxsini shakllantirishga ta‘siri, ularni o‘rganishda juda ko‘p ishlarni qilmoqdalar. Bola nafaqat ota-ona ta‘sirining mahsuli, u oilasini o‘ziga xos tarzda tushunadi va qabul qiladi. Bolalar voqealarni kattalarga qaraganda boshqacha baholaydilar. Estoniyalik psixolog G. Xementaskas tomonidan ishlab chiqilgan dunyoni bolaning ko‘zlari bilan ko‘rish uchun kattalar uchun mashhur

"Oilaviy rasm" testi yordamchi vositadir. Ushbu test bola tomonidan o'z oilasiga shaxsiy topshiriladi baholar, oila a'zolari bilan munosabatlari, bolaning nima qilayotgani haqida u idrok eta olmaydigan narsalarni, kuchli his-tuyg'u bilan nimani his qilayotgani haqida tushuncha beradi. Bolani ongsiz ravishda nima tashvishlantiradi, shuningdek, bu narsalar bolalar rasmlarida ifodalangan. Oilaviy rasm - bu bola shaxsiyatining psixologik portreti. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda foydalanish mumkin. Ushbu testdan psixologlar bolaning "men" ini o'rganish uchun foydalanadilar. Bu testni o'tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va mashhurdir. Bu test o'qituvchilar, maktab psixologlari va ota-onalar tomonidan o'tkazilishi mumkin. Tadqiqot o'tkazish uchun: oq qog'oz 21 x 29 sm, ligi kerak. Bolaga aytiladi: "Iltimos, oilangizning rasmini chizing. Ammo "oila" nima ekanligi tushuntirilmagan, chunki tadqiqot transfer maqsadi o'zgaradi. Topshiriqni bajarish vaqti cheklangan emas. Bola vazifani bajarayotganda quyidagilarga e'tibor berilishi kerak: chizilgan tarkibning ketma-ketligi, tarkibni o'chirish, bolaga sharhlar berish, his qilish - hayajon va boshqalar. Vazifani bajarib bo'lgach, bolaga quyidagi savollarni bering: 1) Ayting-chi, bu rasmda kimni chizgansiz? 2) Ular qayerda? 3) Ular nima qilishyapti? 4) Ular xursandmi yoki biror narsadan zerikkanmi? 5) Ulardan qaysi biri baxtli? Nega? 6) Ulardan qaysi biri juda baxtsiz? Nega? "Oila rasmi" testini tahlil qilish uchun a) bolaning yoshi, b) oila a'zolar sonini bilish va v) aka-uka, yoki opa-singillarning yoshini bilish kerak. Oila rasmini tahlil qilish: 1) Bolaning haqiqiy oilasi, u tomonidan chizilgan oilaviy rasm bilan solishtiriladi. Agar oiladagi munosabatlar va muhit ijobiy bo'lsa, bola oilaning barcha a'zolarining rasmini chizadi. 1) Agar rasmda oila a'zolarining birontasi chizilmagan bo'lsa, demak oilaviy vaziyat mukammal emas. 2) Agar rasmda oilaga tegishli bo'lmagan odamlar ko'rsatilgan bo'lsa chizilgan bo'lsa: a) e'tiborsizlik, yolg'izlanib qolish, b) kuchli kata xavotrilanish darajasi. 3) bolalar odatda oila a'zolaridan biri bilan nizo muammo vujudga kelsa ularni chizishni unutishadi. Ko'p hollarda, aka-uka yoki opa-singillarni chizishmaydi. Shu bilan birga bola bu usulni oilada ota onasining mehridan qanoatlanmasligida ifodalaydi. Masalan, bola o'zini otasi va onasi orasiga tortadi. kenja ukasi yoki singlisini ko'rsatdi, lekin umuman chizmadi. 4) Agar bola o'z rasmini yoki oilasi o'rniga chizmagan bo'lsa. u faqat o'zini chizsa, unda bu holda bu oiladagi umumiy hujayra yo'qligidan dalolat beradi. 5) Agar bola o'z oilasi o'rniga hayvonlar va qushlarni chizsa, unda bolada e'tibor va hissiy roziklik yo'q. 6) Agar bola qo'llarini ushlab turgan oila a'zolarining rasmini va bittasini ko'rsa agar u chiziq bilan chizilgan bo'lsa, unda bu oilada psixologik iqlim yaxshi. Agar bo'lmasa, aksincha. 7) Agar oila a'zolari guruh-guruhlariga bo'lingan bo'lsa, unda bu oilada kichik guruhlar mavjudligini bildiradi. 8) Oila a'zolarining kiyimlarida ko'p miqdordagi tarkibning mavjudligi; rang oiladagi ijobiy munosabatlarni ko'rsatadi va aksincha agar oilaviy munosabatlarda adovat bo'lsa, oila a'zolarining tanasi to'la holda chizilgan, yalang'och yoki tugallanmagan.

9) Bolalar odatda ota va onani juda katta chizishadi. Shunday qilib, oiladagi munosabatlar tenglik asosida qurilgan, bola o'zini oilada kattalar kabi his qiladi. 10) Agar bolalar o'zlarini otasi va onasidan kattaroq chizishsa, binobarin, bolaning o'zini-o'zi qadrlash darajasi juda yuqori. Natijalar: Misol uchun, 12 yoshli qiz tomonidan chizilgan oilaviy rasimga murojaat qilamiz Qizning oilasi otasi, onasi, buvisi va o'zidan iborat. Suratda qiz o'zini, onasini va otasini chizdi. Otasi uzoq vaqt ular bilan birga yashamaydi Bundan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: bola oila keng tarqalgan, u birlikni his qilmaydi, buvisiga nisbatan tajovuzkorlik bor. Ona va u o'rtasida hech qanday hissiy iliqlik yo'q. Suratda bola otasi bilan. yashirincha yashash istagini bildirgan. Bola oilada o'zini yolg'iz his qiladi, o'zini yolg'izlangan, hamma tomonidan tashlab ketilgan his qiladi. Ikkinchi misol - 10 yoshli bola o'z oilasini tasvirlaydi. Butun oilaning fotosurati ishtirokchilar bir-birining qo'llarini ushlab ko'rsatiladi. Bola rasmning o'rtasiga o'zini chizdi. Rasmni tahlil qilib, oilada psixologik iqlim yaxshi ekanini bilib oldik. Oilada bola ota-onasi va oila a'zolarining sevgisini his qiladi. Bolani oilada qulay his qilishni bilish uchun unga bo'sh oq qog'oz bering va undan oilaning rasmini chizishini iltimos qiling. Ota-onalarni bolaga munosabati test-so'rovi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagicha (A.Ya.Varga, V.V. Stolin). Tajriba tadqiqotida bolalari boshlang'ich ta'limga qatnaydigan 16 ta oila ishtirok etdi. Tadqiqot davomida ishtirokchilardan oilaviy munosabatlar uslubini aniqlash maqsadida "ota-ona munosabati" test-anketasi (A.Ya.Varga, V.V.Stolin) savollariga javob berish taklif qilindi. Ta'kidlab o'tilganidek, bola tarbiyasida ona alohida o'rin egallaydi, shuning uchun biz tadqiqotimizga onalarni jalb qildik, chunki bola asosan vaqtini onasi bilan o'tkazadi. Va o'rganish ishlari natijasida quyidagi natijalarga erishildi: Tavsiyalar: Ota-onani bolaga munosabatlar o'z-o'zidan yaxshi bo'lishi mumkin. Buni amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni ko'rib chiqish mumkin: 1. Aloqada bo'ling; 2. Uzoq muddat birga bo'ling; 3. Bolani tushunishga urinib ko'ring; 4. Bolangizni boricha qabul qiling; 5. Hamfikrli bo'ling; Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali, siz ota-onangiz va bolangiz orasidagi munosabatlarda yaxshi natija olasiz

Xulosa: Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa jamiyat shu qadar farovon va barqaror bo'ladi. Jamiyat, oila va shaxs bir-birisiz mukammal, baxtiyor bo'la olmasligi hayotiy haqiqat. Shu ma'noda oilaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshirish, mustahkamligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bola uchun oila - u yashaydigan, harakat qiladigan, kashfiyotlar qiladigan, sevishni, nafratlanishni, quvonishni, hamdardlik qilishni o'rganadigan butun dunyo. A'zo sifatida bola ota-onasi bilan muayyan munosabatlarga kiradi, bu unga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ota-onaning pozitsiyasi bola bilan o'zaro munosabatlarda amalga oshiriladigan xatti-harakatlarning ma'lum bir uslubi bilan tavsiflanadi. Oilada ota-onaning bolaga munosabati ko'p jihatdan bolalarning kasbiy

roli va pozitsiyasini qanchalik to'g'ri tushunishiga, tengdoshlari bilan muloqotning rivojlanish darajasiga, o'zini-o'zi qadrlashiga bog'liq. Shuningdek, bolaning rivojlanishida va uning individualligini hurmat qilishda, uning qiziqishlarini ma'qullashda, u bilan ko'p vaqt o'tkazishni biladigan ota-onalar muhim rol o'ynaydi. Bolaning mustaqilligi va tashabbusini rag'batlantirish, uning oqilona ehtiyojlarini qondirish zarur. Aks holda, bolaning hayot sharoitlariga moslashishi juda qiyin kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: Baxtiyor oila
2. Shayx Abdulaziz Mansur: Baxtli oila
3. Zebiniso Ahmedova: Oila diplomatiyasi
4. <http://www.gogle.com>
5. <https://uza.uz/oz/posts/oila-muqaddas-qorgon>

“ONA TILI O`QITISH METODIKASI FANINING USLUBIY
VA ILMIY ASOSLARI”

Muhammadjonova Mahliyo

*Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 214-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili o'qitish metodikasini fanining metodologik va ilmiy asoslari hamda bilish nazariyasi va ta'lim to'g'risidagi qonunlar to'g'risida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Metodika, metodologik asos, til va nutq.

Аннотация: В данной статье описаны методологические и научные основы методики обучения родному языку, а также теория познания и законы об образовании.

Ключевые слова: Методология, методологическая основа, язык и дискурс.

Abstract: This article describes the methodological and scientific foundations of the method of teaching the mother tongue, as well as the theory of knowledge and laws on education.

Key words: Methodology, methodological basis, language and discourse.

"METHODODOLOGICAL AND SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF THE SCIENCE
OF MOTHER TONGUE TEACHING METHODOLOGY"

*Faculty of Pedagogy, Urganch State University
Primary education Student of group 214
Muhammadjonova Mahliyo*

Abstract: This article describes the methodological and scientific foundations of the method of teaching the mother tongue, as well as the theory of knowledge and laws on education.

Key words: Methodology, methodological basis, language and discourse.

The methodological basis of the mother tongue teaching method is the theory of knowledge. The main task of this subject is to ensure that students fully master the vocabulary of the Uzbek language. It is known that language is a necessary means of communication between people in society. The importance of language as a means of communication is constantly increasing. Language is a means of rational, logical knowledge of existence. Only with the help of language units, in the process of cognition, generalization, connection of understanding with discussion and conclusion is carried out. Language and speech are inextricably linked with thinking. Along with

learning the language and developing speech, the student's thinking ability also increases. The task of the school is to make the language a sophisticated tool of communication between people. As a methodical science, the methodology of teaching the mother tongue fulfills the tasks set by the primary education standard, that is, to expand thinking activities, to be able to think freely, to be able to express one's opinion fluently orally and in writing, society develops methods and methods for developing skills and abilities to freely communicate with members. This method of teaching the mother tongue in school corresponds to both the laws of knowledge of the truth and the tasks of modern didactics. The Law "On Education" defined the main principles of state policy in the field of education:

- that education and upbringing are humane and democratic in nature;
- continuity and consistency of education;
- general secondary, as well as secondary special vocational education is mandatory;
- the discretion of choosing the direction of secondary special, vocational education: studying at an academic lyceum or a vocational college;
- that the education system is secular in nature;
- accessibility of education to everyone within the framework of state education standards;
- a unified and differentiated approach to the selection of educational programs;
- to encourage knowledge and talent;
- harmonization of state and public administration in the educational system

These principles define and clarify the tasks of the mother tongue teaching methodology in primary education. The law states that primary education is aimed at forming the foundations of literacy, knowledge and skills necessary for general secondary education. The science of mother tongue teaching methodology in primary grades relies on state documents in the field of education in defining its tasks. In the following years, with the honor of independence, fundamental reform of education became the main direction of state policy. The Law "On Education" and the "National Personnel Training Program" created on this basis are a clear proof of this. The main goal of the "National Personnel Training Program" is to fundamentally reform the field of education, to create a national system of highly qualified personnel training that meets high moral and ethical requirements at the level of developed democratic countries. The methodology of teaching the mother tongue is also based on the information of psychology and pedagogy. Pedagogical sciences also help in solving the issues of methodology. Therefore, psychology and pedagogy are the methodological basis of the methodology. Pedagogical psychology considers the study of psychological laws of education and training to be its subject. He researches the formation of thinking in students, studies the issues of managing the process of

mastering mental activity methods and skills, the implementation of the teaching process, the interaction between the pedagogue and students, and the student team. determines the psychological factors affecting relationships, individual-psychological differences in students, specific features of educational work with children lagging behind in mental development. In conclusion, we can say that pedagogical psychology helps the methodical science in choosing educational material, determining the content and volume of the mother tongue in primary grades, educational material, and arranging their distribution by classes in a certain consistency. We can say that they help to determine the effective methods and forms of teaching, the correct growth of students' analytical and synthetic activity.

References:

1. Ghulamov. Principles and methods of mother tongue teaching. - T.: "Teacher", 1992.
2. S. Matchonov and others. Organization of elementary reading lessons based on pedagogical technologies. - T.: "Teacher", 2008.
3. S. Matchonov, H. Gulomova. Speech culture. "Primary Education" magazine. - Tashkent, 2000. Pages 1-8-10.
4. Yu. K. Babansky. Methods of teaching in modern general education school. - T.: "Teacher", 1990.

MAMLAKATIMIZDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYA
TIZIMINI BAHOLASH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Ilmiy rahbar: U.A.Yuldasheva

TMI "Xalqaro moliya-kredit" kafedراس dotsenti

TMI talabasi Saminjonova Oygul Ma'rufjon qizi

ОЦЕНКА ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ В НАШЕЙ СТРАНЕ НА ОСНОВЕ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ
ФИНАНСОВ

Научный руководитель: У.А. Юлдашева ТФИ доцент кафедры
"Международные финансы-кредит"

Студент ТФИ Саминжонова О.М

ASSESSMENT OF THE FINANCIAL SYSTEM IN OUR COUNTRY ON THE
BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS AND IMPROVEMENT
OF FINANCE

Scientific supervisor: U.A.Yuldasheva, Associate Professor of the
Department "International Finance and Credit" TFI

Saminjonova O.M. student of TFI

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda davlatning milliy iqtisodiyotini xususan moliya tizimini rivojlantirish asosiy vazifa sifatida ko'rib, moliya tizimini rivojlangan mamlakatlar tajribalarini samarali qo'llash usullari o'rganilgan. Mamlakatimiz taraqqiyotini iqtisodiy jihatdan yuksaltirish uchun moliya tizimini takomillashtirish hamda yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish masalalari muhim ahamiyat kasb etilishi yoritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori talablari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Moliya, rejalashtirish, tahlil, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlari, (MXXS), xorij investitsiyalar

Аннотация: В данной статье развитие национальной экономики государства, особенно финансовой системы, рассматривается как основная задача, и для этого совершенствования изучаются методы эффективного применения опыта стран с развитыми финансовыми системами. В целях повышения экономического развития республики освещены вопросы совершенствования финансовой системы и достижения высоких макроэкономических показателей, а также разработаны предложения и

рекомендации по анализу развития финансовой системы. ПЗ-4611 от 24 февраля 2020 года «О дополнительных мерах» и об открытии новой страницы в учетной политике в нашей стране.

Ключевые слова: Финансы, планирование, факторы совершенствования финансовой системы в республике, анализ и предложения, Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), иностранные инвестиции

Annotation: In this article, the development of the national economy of the state, especially the financial system, is seen as the main task, and methods of effective application of the experiences of countries with developed financial systems are studied for this improvement. In order to increase the economic development of the republic, the issues of improving the financial system and achieving high macroeconomic indicators are highlighted, and suggestions and recommendations have been developed regarding the analysis of the development of the financial system. about the requirements of the decision PQ-4611 of February 24, 2020 "on additional measures" and about the opening of a new page in the accounting policy in our country.

Key words: Finance, planning, factors of improving the financial system in the Republic, analysis and proposals, International Financial Reporting Standards (IFRS), foreign investments

Kirish

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) jadal o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda qabul qilingan PK-4611-son "Moliyaviy xisobotning xalqaro standartlarga o'tish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori(2) ga asosan yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalariga MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot taqdim etish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifalarni xal qilishda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha standartlarni bir urinishda o'rganib bo'lmaydi. Ularning har birini alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Chunonchi, dunyoga yangi ko'z bilan qarayotgan Resublikamiz endilikda yopiq iqtisodiyotdan imkon bo'richa voz kechib, ochiq, shaffof, yangicha iqtisodiyotni tashkil etishini ushbu qaror yana bir qadamligini bildiradi. Yangi bilimlarni egallash va o'zlashtirish, bir qobiqqa va ko'rinishga o'rganib yangi ishlash uslubini bilish mashaqqat va mehnat talab qiladi. Ammo hozirgi kundagi dunyo iqtisodiyotidagi real holat shuki, buxgalter faoliyatining asosi moliyaviy axborot foydalanuvchisi manfaati, ya'ni investor va qaror qabul qiluvchi mulkdorlar, boshqacha emas. Lekin afsus, ko'pgina korxonalar, tashkilot kompaniya va banklar rahbarlari tushunmaydi yani buxgalterlar vazifasi soliq hisobotlarini to'g'iri va o'z vaqtida topshirish yoki nazorat va tekshiruv uchun hisob-kitob yuritadi deb o'ylaydi.

Shu bilan birgalikda shubhasiz, xalqaro hisobot standartlarini joriy etish

mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning yangi bosqichiga o'tadi. MHXS tomonidan tuzilgan hisobot, o'zbek korxonalari, tashkilotlari va kompaniyalari faoliyatida real jarayonlarni aks ettiradi. Aktivlar bozor qiymati bo'yicha hisobga olinadigan bo'lsa, zaxiralar to'g'ri hisoblansa, dunyoning aksariyat mamlakatlarida tashqi foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'ladi. Natijada, MHXSni joriy etish nafaqat o'zbek korxonalari, kompaniyalar va banklarning xalqaro darajaga chiqishiga, balki investitsiyalarni jalb qilishga ham yordam beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Prezident qarori imzolandi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinlarda – MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

1. Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar: 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno 2021 yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot" fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud "Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)", "Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)", "Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)" va "Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)" sertifikatlaridan (keyingi o'rinlarda – xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020 yildan boshlab, ushbu bandeda ko'rsatilmagan davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvali har yili tasdiqlanishi va 1 iyunga qadar rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

2. Moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik sub'ektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda MHXSning joriy etilishini, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan moliyaviy hisobotlar MHXS asosida o'z vaqtida e'lon qilinishini monitoring qilish;

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Ko'plab mutaxassislar, shu jumladan, davlat hokimiyat organlarining vakillari tomonidan amaldagi soliq mexanizmining

nosamarali ekanligi, biznesning ayrim sohalari uchun esa uning oqibati juda yomon natijalarga olib kelishi mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslansayu, moliyaviy siyosat uzoq vaqt davomida o'zgarmasdan qolaversa, amalga oshiriladigan soliq islohotlari uning mohiyatini o'zgartirmasa, bunday holda davlatning moliyaviy siyosati davlat hokimiyatining tegishli organlari tomonidan faol ravishda hayotga tadbiiq etilayotgan alohida shaxslar guruhining moliyaviy siyosatiga aylanadi, qoladi. Moliyaviy siyosatga quyidagicha boshqa ta'rif ham berish mumkin: moliyadan foydalanishning metodlari, uni tashkil qilishning amaliy shakllari va metodologik printsiplarining majmuiga (yig'indisiga) moliyaviy siyosat deyiladi.

XX asrning 30-60-yillarida keynscha moliyaviy siyosat deb nom olgan siyosat g'arb mamlakatlarida o'zining samaradorligini isbotladi. Davlat iqtisodiyotga aralashuvining kengayishi va davlat tartibga soluvchi funksiyasining kuchayishi oqibatida moliyaviy munosabatlarni tashkil qilish murakkablashdi. Davlat xarajatlarini defitsitli moliyalashtirish siyosati davlat kreditining rivojlanishini belgilab berdi. Uzoq va o'rta muddatli qarzlarni jalb etish ssuda kapitallari bozorining rivojlanishiga olib keldi va o'zining ahamiyati bo'yicha davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishning ikkinchi manbaiga aylandi. Buning natijasida MDni qayta taqsimlashda moliyaning roli yanada kuchaydi.

Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy siyosati zamonaviy nazariyalar ostida bo'lib, bu nazariyalar amalda tartibga solish ikki tizimining konvergentsiyasidan (qo'shib ketganligidan, aralashuvidan) iborat. Shunga muvofiq ravishda ayrim davlatlar davlat tomonidan tartibga solishning ham keynschilik ham neokeynschilik tizimining turli-tuman elementlaridan foydalanadilar.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini, xususan, jahon iqtisodiy barqaror rivojlanish jarayonlarini kuzatar ekanmiz, Shu sababli ham bugungi globallashuv jarayonida moliya tashkilotlari, yirik korporatsiyalar va hatto mamlakatlar miqyosida MHXSlar tan olinib, hisobot tizimini yuritishda tayanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekistonda ham bu jarayonda faol ravishda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat darajasida MHXSni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, MHXSni qabul qilgan mamlakatlar bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishini boshdan kechirgan [9]. Xususan, Buyuk Britaniya, Italiya va Germaniya kabi mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, MHXSni joriy etish buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining sifati yaxshilaganligi aniqlangan [10]. Bu shuni anglatadiki, MHXS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar yuqori sifatli, shaffof va taqqoslanadigan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu xalqaro tashkilotlar uchun foydalidir, chunki u investorlar, kreditorlar, moliyaviy Tahlilchilar va moliyaviy hisobotlarning boshqa foydalanuvchilariga o'z investitsiyalari samaradorligini har tomonlama baholashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola metodologiyasida tahlil va sintez,

ilmiy abstraktsiya, umumlashtirish, qiyosiy nazariy talqin usullari qo'llaniladi. Bundan tashqari, maqolaning ilmiy asosini olimlarning mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlardagi tadqiqotlaridan olingan xalqaro ma'lumotlar tashkil etadi.


Tahlil va natijalar. Xalqaro standartlarni mamlakatimiz hisob tizimiga joriy qilishning qanday oqibatlari bizni kutib turganini yaxshilab his qilmog'imiz zarur. Birgina hozirgi kunda kadrlash yetishmovchiligi yoki o'qitish qiymatining yuqoriligi, moliyaviy hisobotning xalqaro satandartlariga o'tish ancha yillar talab qilishi hamda ko'plab resurslar va imkoniyatlarini talab qilishi ma'lum bo'lib ulgurgan.

Axborot shaffoqligini oshirish	<ul style="list-style-type: none"> •shaffoflik xususiyati sifati moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta'minlaydi. Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.
Kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorlarida savdolar ko'lamining kengayishi	<ul style="list-style-type: none"> •kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorining mamlakat ichida shakllanishi va savdolar ko'payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi. Bunda MHXS asosidagi hisobot ma'lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi
Iqtisodiy samaradorlik oshishi	<ul style="list-style-type: none"> •bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o'rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi. Natijada investorlar o'z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo'yicha to'laqonli axborotga ega bo'ladi.
Hisobdorlik oshishi	<ul style="list-style-type: none"> •bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o'rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi. Natijada investorlar o'z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo'yicha to'laqonli axborotga ega bo'ladi.
Bozor likvidligi yaxshilanishi va kapital sarfining pasayishi	<ul style="list-style-type: none"> •moliyaviy axborotlarning batafsil yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlik bozor likvidligini oshiradi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi.
Xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishi	<ul style="list-style-type: none"> •milliy bozorda xorijiy investorlarga ijobiy investitsiya muhiti yaratilishi hamda investorlar huquqlari himoyalangan bo'lishi lozim. MHXSning kapital bozor qatnashchilari tomonidan qabul qilinishi va unga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ochiq e'lon qilinishi ushbu jarayonlarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi.
Moliyaviy tahlilchilar prognozlaridagi aniqlik	<ul style="list-style-type: none"> •moliyaviy axborotning sifati va qiyosiylikni ta'minlaydigan muhit moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va prognozlash tahlillari sifatini oshiradi. Ushbu tahlillar kapitalning samarali boshqaruvi va kelgusida kapital jalb etilishi yoki taqsimlanishi bo'yicha to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi.

1-rasm. MHXSga o'tishning ijobiy jihatlari

Bunday jarayonning boshlanishi ekanligini e'tiborga olib hamda bunday

qiyinchiliklar uning ustunlik tomonlarini inkor etolmasligini hisobga olgan holda, quyidagi taxminiy oqibatlarni sanab o‘tishimiz va to‘g‘ri yo‘nalishda tegishli xulosalar chiqarishimiz uchun juda zarur hisoblanadi (2-rasm)



2-rasm. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hisob amaliyotiga joriy qilishning oqibatlari.

MHXSga o‘tish natijasida erishiladigan amaliy afzalliklarga ega bo‘lishimiz mumkin:

1. Aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – bunda aktivlar va majburiyatlarning boshlang‘ich qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish ham investor, ham tashkilotning o‘zi uchun samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi;

2. Moliyaviy instrumentlarni qo‘llashning qulayligi – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida zamonaviy biznes yo‘nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko‘rib chiqilishi iqtisodiy subyektlarning moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

3. Aktivlar qadrsizlanishini o‘z vaqtida aks ettirish – amaldagi buxgalteriya hisobining milliy standartlari aktivlar qadrsizlanishi xavfi bo‘yicha choralar ko‘rishni

talab etmaydi. Shu tufayli, yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko'rsatilish riskini yuzaga keltiradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bunday xavfilarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo'yadi.

Xulosa va takliflar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi, ijobiy jihatlari va afzalliklarini hamda oqibatlarini tahlil qilish hamda nazariy-uslubiy jihatlarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarni berish mumkin: birinchi, korxonalarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash, uning ahamiyati va zarurati o'rganish, nazariy-uslubiy jihatlarni tadqiq qilish orqali ushbu moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar, asosan, investorlarni jalb qilishda ustuvorlikka ega ekanligi hamda shaffof va to'liq ochib berilgan ma'lumotlar to'plamini taqdim etilishi va ishonchli manba bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab aytish zarur

Ikkinchidan, mamlakat miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda eng kerakli resurs bu kadrlar hisoblanadi. Shu sababdan, kadrlar tayyorlash tizimini tezkor ravishda ishlab chiqish va dasturiy ta'minotga o'zgartirish kiritish uchun mavjud va qo'shimcha resurlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir;

Uchinchidan, milliy buxgalteriya hisobini MHXSning prinsip va talablariga mos holda keltirish bo'yicha islohotlarni davom ettirish jarayonida amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarga, buxgalteriya hisobining milliy standartlariga zaruriy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xususan, nizomlar, yo'riqnomalar va qoidalarni ham standartlarga aylantirishimiz kerak;

To'rtinchidan, MHXSni qabul qilish va uni qo'llashda hisob tizimidan tashqari, moliya, pul-kredit, soliq va mehnat qonunchiligini hamda kapital bozorini o'zaro uyg'unlikda ta'minlash zarur.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ilmiy adabiyotlarda Respublikada moliya tizimini hamda moliyani takomillashtirishni tushunchasiga turlicha ta'rif va talqinlar keltirilgan hamda barqaror moliyani rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'рни va ahamiyati ilmiy asoslangan.

Jumladan,. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Hammuallif - T.: "MOLIYA", 2010 - 272 b.

2.M.Bonham.Generally accepted a ccounting practice under IFRS. Ernst & Young. USA, 2010.

3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A. Rizaqulov, B.Xasanov, Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 348

SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 4 I ISSUE 4 I 2023 _ISSN: 2181-1601

Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro

standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2020 yil 24 fevralda PQ-4611.

5.Ibragimov A., Rizaev N. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. -T.: BMA «Moliya» nashriyoti, 2016 y. - 370 b.

6.Ergasheva SH., Ibragimov A, Rizaev N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU. «IQTISODIYOT», 2019 y. - 321 b. (grif 1000-150, 2018 y. 7 dekabr)

7.S.N.Tashnazarov-Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.Darslik-Toshkent.: Iqtisod-moliya,2019-584 b.

8.D.E.Norbekov, A.N.To‘rayev, Sh.Sh.Rahmonov –Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari : O‘quv qo‘llanma-T.: “Iqtisod-moliya”,2019-332 b.

9.www.mf.uz – Ozbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

10.www.tfi.uz – Toshkent moliya institute sayti

SHARTLI REFLEKSLARNING HOSIL BO‘LISHI, FOYDALI VA ZARARLI OQIBATLARI

Tilovova Gulhayo Tursunqul qizi

Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi

Ibn Sino nomidagi yosh kimyogarlar va biologlar ixtisoslashtirilgan
maktab-internatining 8-sinf o‘quvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada shartli reflekslarning hosil bo‘lishi, foydali va zararli oqibatlari, shartli reflekslar va shartsiz reflekslarning farqi o‘rganiladi. Shartli reflekslar inson hayoti davomida yuzaga keladi, individual rivojlanish va yangi ko‘nikmalarni to‘plashdir. Neyronlar o‘rtasida yangi vaqtinchalik aloqalarning rivojlanishi atrof-muhit sharoitlariga bog‘liq. Shartli reflekslar shartsiz reflekslar asosida miyaning yuqori qismlari ishtirokida rivojlanadi. Bu maqolada shartli reflekslarning o‘rganilish tarixi, shartli reflekslarning hosil bo‘lishi, shartli reflekslarning dolzarbligi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: shartli reflekslar, shartsiz reflekslar, neyronlar, reflektor yoyi, I.P.Pavlov, retseptorlar, qo‘zg‘atuvchi.

Reflekslar haqida dastlabki tasavvurlarni fransuz filosofi va tabiatshunosi R.Dekart ilgari surgan. 18-asrda reflekslar va reflektor apparat to‘g‘risidagi ta’limotga shveysariyalik A.Galler, chex Y.Proxaska, shotland Ch.Bell, fransuz F.Majand va boshqalar o‘z hissasini qo‘shishdi. Shartli reflekslar haqida ta’limotning rivojlanish tarixi birinchi navbatda I.P.Pavlov nomi bilan bog‘liq. U yangi qo‘zg‘atuvchi shartsiz qo‘zg‘atuvchi bilan bir muddat birga berilsa refleks reaksiyasini boshlashi mumkinligini ko‘rsatdi. Pavlov fikricha, hatto yuqori darajada rivojlangan hayvonlar (masalan, it, maymun) oliy nerv faoliyati, asosan, hayvonlar va odamda umumiy bo‘lgan birinchi signal sistemasining xilma-xil va turli-tuman shartli reflekslar yig‘indisidan iborat. Nutqning asta-sekin rivojlanishiga qaramasdan birinchi signal sistemasining shartli reflekslari bolalar hayotining dastlabki yillarida oliy nerv faoliyatining asosiy fondini tashkil etadi. Keyingi o‘sinh davrida esa odamning oliy nerv faoliyati ma’lum o‘rinni egallaydi. Nerv sistemasining reflektorlik xususiyatini I.M.Sechenov tushuntirib bergan. U odamning xatti-harakati va ruhiy holati nerv sistemasining reflektorlik xususiyati bilan bog‘liqligini isbotlab berdi. U 1863-yilda yozgan “Bosh miya reflekslari” asarida psixik faoliyatning reflektor tabiati to‘g‘risidagi g‘oyani rivojlantirgan. I.M.Sechenov o‘z asarlarida “hayotdagi barcha ongli va ongsiz aktlar butun mohiyati bilan reflekslardir” degan edi. Shartli reflekslar odam va hayvonlarning shaxsiy hayoti davomida orttirgan moslashuv reaksiyalari sistemasi; shartli qo‘zg‘atuvchi bilan shartsiz reflektor qo‘zg‘atuvchisi o‘rtasida

vujudga keladigan muvaqat bog‘lanish tufayli paydo bo‘ladi. Shartli reflekslar markaziy nerv sistemasiga ega barcha hayvonlarda bor. Shartli reflekslar hosil qilinadigan reaksiyaga befarq bo‘lgan qo‘zg‘atuvchisi (signal), ya‘ni shartli ta‘sirlovchining organizmiga uzluksiz ta‘siri bilan bog‘liq. Reflekslar-organizmning markaziy nerv sistemasi orqali ichki yoki tashqi muhit omillari ta‘siridan retseptorlar qo‘zg‘alishiga javob reaksiyasidir. Reaksiyalarning tuzilishi mexanizmi reflektor yoydan iborat. Bunda retseptorlar ta‘sirotini qabul qilib, sezuvchi (afferent)nervlarga, ular miya markaziga, markaziy nerv sistemasi qo‘zg‘alishi miyadan harakatorganlariga uzatuvchi (efferent) nervlarga, ulardan effektorlar-muskullar, bezlar hamda ichki a‘zolariga o‘tkazadi. Reflekslar a‘zolar ishini va ularning o‘zaro ta‘sirini tartibga keltirishda, organizm bir butunligini saqlash hamda yashash sharoitiga moslashishida katta ahamiyatga ega. Reflekslar turiga qarab, millisekunddan bir necha sekundgacha davom etadi. Qo‘zg‘alish reflektor yoyda faqat bir yo‘nalishda-afferent neyrondan efferent tomonga o‘tkaziladi. Bu xususiyat neyronlar qozg‘alishini uzatish paytida ajralib, sinaptik tutashishni vujudga keltiruvchi kimyoviy moddalar (mediatorlar)ga bog‘liq. Shartsiz reflekslarda qo‘zg‘alishning retseptorlardan effektorlarga o‘tadigan yo‘li reflector yoyi deyiladi. Shartsiz va shartli reflekslar o‘rtasida farq ancha nisbiy bo‘lganidan ularni tasnif qilish qiyin. Voyaga yetgan odam va hayvonlarda shartsiz reflekslar sof holda uchramaydi. Shartli reflekslar, qoida tariqasida, shartsiz reflekslarning tuzilishini takrorlaydi, shartli qo‘zg‘atuvchi shartsiz bir xil nerv markazlarini qo‘zg‘atadi. Shuning uchun shartli refleks komponentlarining tarkibi shartsiz reaksiya komponentlarining tarkibiga o‘xshaydi. Nerv hujayralari tashqi va ichki muhit omillari ta‘sirida tinchlik holatidan aktiv holatga o‘tish xususiyatiga ega. Nerv hujayralarining muhim xususiyatlaridan biri qo‘zg‘alishidir. Qo‘zg‘alish tufayli ta‘sirga tezda javob reaksiyasi paydo bo‘ladi. O‘zgarish vaqtida to‘qimada funksional, fizik-kimyoviy hodisalar sodir bo‘ladi. Nerv tizimining har bir sohasi tashqaridan bo‘lgan ta‘sirga qo‘zg‘alish yoki tormozlanish bilan javob qaytaradi. Odamda bir qancha reflekslarni ko‘rish mumkin. Masalan, chiroq ravshan yoqib yuborilganda qorachiq torayadi (qorachiq refleksi); oyoqning tagini qitiqlash, silash yoki unga igna sanchish oyoq panjasi va barmoqlarining bukilishiga sabab bo‘ladi (oyoq kafti refleksi). Barcha reflekslarda sezuvchi yoki markazga intiluvchi nervlarning oxirlari, ya‘ni retseptorlar ta‘sirilanadi. Retseptorlarda kelib chiqqan qo‘zg‘alish markazga intiluvchi nerv tolasi orqali markaziy asab tizimiga boradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhit sharoitlarining o‘zgarishi tananing ularga doimiy moslashishini talab qiladi. Odamlarda bunday reaksiyalar asab tizimining refleks faolligi bilan ta‘minlanadi. Evolyutsiya jarayonida organizmning moslashish qobiliyatini ta‘minlaydigan, uning funksiyalarini birlashtiradigan, muvofiqlashtiradigan mustahkam irsiy reflekslar paydo bo‘ldi. Shartli reflekslar

organizmning hayot davomida atrof bilan o‘zaro ta’siri asosida individual rivojlanadi. Shartli reflekslarning biologik roli organizmning turli xil sharoitlarga moslashish qobiliyatini kengaytirishdan iborat. Shartli reflekslar bolada ta’lim, tarbiya, nutq va fikrlashni rivojlantirish, mehnat, ijtimoiy va ijodiy inson faoliyatining asosini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

8-sinf boiologiya darsligi

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Reflekslar>

<https://ief-usfeu.ru/uz/uslovnye-i-bezuslovnye-refleksy-klassifikaciya-i-vidy-bezuslovnye/>

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Shartli_reflekslar

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ivan_Pavlov

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Shartsiz_reflekslar

<https://peskiadmin.ru/uz/uslovnye-i-bezuslovnye-refleksy-vyssshaya-nervnaya-deyatelnost-psihicheskaya-deyatelnost-vidy-uslovny.html>

ERITMA VA UNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIR

Zo'raliyeva Zaxroxon So'birxo'ja qizi

+998937166747

zahrozuraliyeva@gmail.com

Annotasiya : Ushbu maqolada eritma nima ekanligini va inson organizmiga ta'siri haqida manbalar asosida ma'lumot berilgan .

Kalit so'zlar: Eritma, eruvchanlik, olma sirkasi, kaliy permanganat, me'da, allergiya .

Eritma ikki komponentdan tashkil topgan sistema . Eritma 2 qismdan iborat :

1. Erituvchi : H₂ O va boshqalar.
2. Erigan modda : kislota , tuz , asos va boshqalar

Erituvchi+ erigan modda = eritma

Eritmaning 3 xil agregat xolati mavjud :

1. Suyuq (har xil tuzlar , kislota , asosning suvdagi eritmasi)
2. Qattiq (mis , nikel qotishmasi , chaqa tanga , mis , oltin qotishmasi)
3. Gaz (gazlar aralashmasi (havo) > N > erituvchi).

Eritmada qaysi modda o'z agregat holatini saqlab qolsa – erituvchi deyiladi , agregat holatini saqlab qola olmagan – erigan modda deb ataladi . Agar ikkalasi ham o'z agregat holatini saqlab qolsa , ularning qaysi birining massasi ko'p bo'lsa o'sha modda – erituvchi , modda miqdori kami emas erigan modda .Ikkala modda o'z agregat holatini saqlab qolib , massalari ham teng miqdorda olinsa , ikkalasi ham – erituvchi deyiladi . Moddalar eruvchanligiga ko'ra 3 gaa bo'linadi :

Yaxshi eriydigan : 100 g suvda 10 g va undan ko'p eriydi .

Oz eriydigan : 100 g suvda 1dan 10 g gacha bo'ladi .

Yomon eriydigan : 100 g suvda 0.01dan kam erisa amalda erimaydi .

Eritma tarkibidagi erigan moddaning miqdoriga ko'ra 3 ga bo'linadi:
To'yinmagan modda : ayni temperaturada erituvchidan erigan moddaning yana erish hususiyati .

To'yingan modda : ma'lum bir temperaturada erituvchidan boshqa eriy olmaydi .
O'ta to'yinga : ayni temperaturada to'yingan eritmani turli usullar yordamida eriydigan moddalardan qo'shib to'yintiradi .

Olma sirkasi tarkibida B1 B2 B6 A E vitaminlari, 16 turdagi aminokislotalar, mevali kislotalar (sirka , sitrik , olsalat) , Fe ,Cr , K , sink , Mg , selen , P , mineral tuzlar mavjud bo'lib , imunitetni qayta tiklash , foydali moddalar Mg , Na

, S , Ca va P ga ega . Olma sirkasi boshqa narsalar qatorida , sirka , neyrodermatit , psoriazinni yengillashtiradi . Uni har doim 1:1 suv bilan aralashtiriladi . Shuningdek , sirka 2.5 foiz konsentratsiyasida suyultirilgan bo‘lishi lozim . Hech qachon yuz , qil , va oyoq terisi uchun suyultirilmagan olma sirkasini ishlatib bo‘lmaydi . Olma sirkasi kichik pigmentli dog‘larni yaxshi rangsizlantiradi, shuningdek, yallig‘langan yog‘ bezlarini dezinfeksiya qiladi, husnbuzarlarga qarshi kurashadi va ularning paydo bo‘lishini oldini oladi. Bundan tashqari, olma sirkasini terini taranglashtirish va kuniga ikki marta suyultirilgan sirka bilan yuvish orqali kichik ajinlardan qutilish uchun ham foydalanish mumkin. Muammoli teri uchun olma sirkasi suyultirilishining nisbati: bir stakan suv uchun 2 choy qoshiq. Ushbu eritma bilan ekzema namlanadi va yuza bo‘ylab so‘rilib ketishi uchun artilmaydi. Ta’sirchan teri uchun 1 stakan suvga choy qoshiq olma sirkasi qo‘shiladi. Suyultirilgan sirkani iste’mol qilish tanani oziqlantiradi. Kunlik me’yorning chegarasi 2-3 choy qoshiq suyultirilgan sirka. Olma sirkasi terining pH qiymatini me’yorlashtirishi sababli muntazam yuvish yordamida yuzning quruqligi yoki yog‘lanishidan xalos bo‘lish mumkin.



Ogohlantirish !!!

Olma sirkasi qo'l terisining kichik qismiga surtiladi va 10-15 daqiqa kutiladi. Olma sirkasidan teriga foyda olish uchun 4-5 foiz kuchga ega bo'lgan tabiiy fermentatsiya sirkasini ishlatish tavsiya etiladi. Quyidagi hollarda olma sirkasi nojo'ya ta'sir ko'rsatishi mumkin: diabet, jig'ildon qaynashi, oshqozon yarasi, pankreatit. Teriga tabiiy olma sirkasi qo'llanilgandan so'ng quyoshga chiqmasdan oldin unga kiyim va quyoshdan himoya qiluvchi krem surtish kerak. Chunki fitokimyoviy kuyish kuzatilishi mumkin.

Kaliy permanganat to'q binafsha rangli yaltiroq kristall ,suvda yaxshi eriydi. Kaliy permanganat matolarni oqartirish uchun ishlatiladi va antiseptik hisoblanadi . Bundan tashqari, u organik moddalar uchun yaxshi oksidlovchi vositadir . Suyuq gazni vodorod sulfidi yoki fosfin kabi xavfli aralashmalardan tozalash uchun eritmalarga qo'shiladi . Kaliy permanganat og'iz orqali qabul qilingan zaharli moddalarni toksik ta'sirini zararlantirish xususiyatiga ega . Yana teri kesilganda va yoriqlarda dezinfeksiya qilishda va Me'dani otravlana (zaharlanish) xolatlarida yuvishda (bunda margansofkaning kuchsiz eritmasini tayyorlash kerak). Bundan tashqari , yiringli yaralarni yuvishda ishlatiladi .

Ogohlantirish !!!

Yara yuzasiga va kuyganda teri sirtiga yuvish uchun. Og'iz va og'iz bo'shlig'i (tonzillit, faringit , angina) kabi xolatlarda kuchsiz eritmasini tayyorlab foydalanish kerak . Me'dani va qovuqni yuvish uchun kuchsiz eritmasini tayyorlab foydalanish kerak (zond orqali yuboriladi). Preparatga yuqori allergik reaksiya bo'lganda . Me'da dan qon ketganda yuvish mumkin emas . Kaliy permanganat portlovchi modda bo'lgani uchun sotib olmang va laboratoriyada tayyorlashga urunmang .

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ba'zi bir eritmalar borki, ularsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin, ba'zilari borki ular biz uchun xavfli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

8 - sinf kimyo darsligi

9 - sinf kimyo darsligi

<https://zenodo.org/records/7625323>

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Eritma>

<https://www.slideshare.net/YUSUFBOYYOQUBOV/eritmalarining-kontsnratsiyasi-va-ularni-ifodalash-usullaripptx>

O'SIMLIK ORGANIZMIDAGI MODDALAR ALMASHINUVINING
MIKRO VA MAKRO ELEMENTLARI TURI

Mamashokirova Dilshoda Ravshanbek qizi
Abu Ali ibni Sino maktabi 8-A sinf o'quvchisi
+998933393134
dmamashokirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'simliklarda uchrovchi va ularning yashashi, o'sishi uchun zarur bo'lgan mikro va makro elementlar shuningdek, ular yetishmasa o'simlikda kelib chiqadigan muammolar va bartaraf etish yo'llari haqida manbalar asosida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Mikroelement, makroelement, fotosintez, K, S,N,Fe, MG, CA,AL..

O'simliklar fotosintez deb ataladigan jarayon orqali o'z oziq-ovqatlarini ishlab chiqarishga qodir. Ozuqa moddalarini ildizlari orqali tuproqdan o'zlashtiradi va poya orqali yer sathidan yuqori bo'lgan turli qismlarga ko'chiriladi. Ular ikki turdagi ozuqaviy moddalarni talab qiladi - makro va mikroelementlar. O'simliklardagi makroelementlar va mikroelementlar barcha biokimyoviy ehtiyojlar uchun o'simliklarni qo'llab-quvvatlaydigan muhim ozuqa moddalariga kiradi va ularsiz o'simlik o'zining hayot aylanishini yakunlay olmaydi, boshqa elementlar o'simlik uchun ma'lum bir funktsiyani almashtira olmaydi, o'simliklar to'liq oziqlanadi. Bu mikro va makro elementlarsiz yashay olmaydi, chunki har bir muhim ozuqa o'simliklarning oziqlanishida bevosita ishtirok etadi. O'simlikning genetik salohiyatini maksimal darajada oshiradi va ekinlarning kuchli va barqaror o'sishiga yordam beradi, yaxshi hosil va yuqori sifatli hosilni yaratadi. Ularning mavjudligi, xususan, donni to'ldirish va meva berish, ildiz rivojlanishi, o'simlik salomatligi va urug'larning hayotiyligiga ta'sir qilishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, makroelementlar va mikroelementlar hosildorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Makroelementlar-o'simlik tarkibida ko'p uchrovchi elementlardir. Oltita muhim oziq moddalar: kaliy, azot, fosfor, oltingugurt, magniy va kaltsiydir. Ushbu muhim oziq moddalar yangi hujayralar hosil bo'lishiga yordam berishning qo'shimcha afzalliklariga ega, ular oxir-oqibat o'simlik to'qimalariga aylanadi. Ushbu oziq moddalarsiz o'sish va omon qolish mumkin emas.

Makronutrientlarga qo'shimcha ravishda, mikroelementlar- o'sish yoki metabolizmga yordam beradigan juda oz miqdorda zarur bo'lgan mikroelementlar yoki minerallar deb ataladigan ozuqa moddalarining boshqa toifasidir. Ba'zi muhim mikroelementlarga bor (B), temir (Fe), xlor (Cl), marganets (Mn), mis (Cu), rux (Zn), molibden (Mo) va nikel (Ni) kiradi.

Makronutrientlar	Mikroelementlar
Uglerod (C)	Temir (Fe)
Vodorod (H)	Marganets (Mn)
Kislorod (O)	Bor (B)
Azot (N)	Molibden (Mo)
Fosfor (P)	Mis (Cu)
Kaltsiy (Ca)	Xlor (Cl)
Kaliy (K)	Rux (Zn)
Magniy (Mg)	Nikel (Ni)
Oltinugurt (S)	Kobalt (Co)
	Natriy (Na)
	Kremniy (Si)

O'n olti element o'simlik o'sishi uchun zarur hisoblanadi. Uglerod (C), vodorod (H) va kislorod (O) O'simliklarda eng ko'p uchraydigan elementlardir. Yashil barglardagi fotosintetik jarayon CO₂ va H₂O ni oddiy uglevodlarga aylantiradi, ulardan aminokislotalar, qandlar, oqsillar, nuklein kislotalar va boshqa organik birikmalar sintezlanadi. Uglerod, H va O mineral ozuqa moddalari hisoblanmaydi. CO₂ ta'minoti nisbatan doimiydir. H₂O ta'minoti kamdan-kam hollarda to'g'ridan-to'g'ri fotosintezni cheklaydi. Qolgan 13 ta muhim element makroelementlar va mikroelementlar sifatida tasniflanadi va tasniflash ularning o'simliklardagi nisbiy ko'pligiga asoslanadi. Makronutrientlar azot (N), fosfor (P), kaliy (K), oltinugurt (S), kaltsiy (Ca) va magniy (Mg) dir. Makronutrientlar bilan taqqoslaganda, yetti mikroelementning konsentratsiyasi - temir (Fe), rux (Zn), marganets (Mn), mis (Cu), bor (B), xlor (Cl) va molibden (Mo) - juda kichik. Ba'zi o'simliklarda beshta qo'shimcha element - natriy (Na), kobalt (Co), vanadiy (Va), nikel (Ni) va kremniy (Si) muhim mikroelementlar sifatida aniqlangan. Mikroelementlar ko'pincha kichik elementlar deb ataladi, ammo bu ularning makronutrientlarga qaraganda kamroq ahamiyatga ega ekanligini anglatmaydi. Mikronutrient etishmovchiligi yoki zaharliligi makronutrient etishmovchiligi yoki zaharliligiga o'xshash o'simlik hosildorligini kamaytirishi mumkin.

Endi biz barcha makro va mikro elementlar va ularning funktsiyalari haqida batafsilroq gaplashamiz.



O'simliklarning optimal o'sishi uchun zarur bo'lgan 17 ta asosiy minerallar quyidagilardir:

Barcha muhim elementlar hujayra shirasining osmotik konsentratsiyasini saqlab turish, buferlash ta'siriga ega, fermentativ faollikni ko'rsatish va makromolekulalar va koenzimlarning asosiy tarkibiy qismi sifatida harakat qilish kabi bir qancha funktsiyalarni bajaradi. Ba'zi muhim elementlarning funktsiyalari quyidagilardan iborat:

Azot : O'simliklar tomonidan ko'p miqdorda talab qilinadi. U tuproqdan ionlar holida olinadi. Bu hujayralarning bo'linishi uchun zarurdir. Bu oqsillar, vitaminlar, gormonlar va boshqalarning asosiy tarkibiy qismidir.

Fosfor: Bu hujayra membranalari, oqsillar va nuklein kislotalarning tarkibiy qismidir va ba'zi muhim reaksiyalar uchun zarurdir.

Kaliy : Bu o'simliklarning o'sadigan qismlarida ko'p miqdorda talab qilinadigan mineraldir. Bundan tashqari, stomataning ochilishi va yopilishi uchun ham talab qilinadi. Bu fermentlarni faollashtirishga yordam beradi va hujayraning turgidligini saqlashga yordam beradi.

Kaltsiy : Hujayra bo'linishi va hujayra membranasi normal ishlashi uchun zarurdir. Metabolik faoliyat ham ushbu mineral tomonidan tartibga solinadi.

Magniy : Nafas olish va fotosintezda fermentlarni faollashtirishda ishtirok etadi va DNK va RNK sintezida yordam beradi. Shuningdek, u ribosomalarning muhim tarkibiy qismidir va ribosoma tuzilishini saqlashga yordam beradi.

Oltinugurt: aminokislotalar, koenzimlar va vitaminlarning muhim tarkibiy qismidir.

Temir : Boshqa mikroelementlarga qaraganda ko'proq miqdorda talab qilinadi. Bu proteinning muhim tarkibiy qismi bo'lib, fermentlarni faollashtirishga yordam beradi.

Marganets : fotosintez, nafas olish va hokazolarda ishtirok etadigan fermentlar

shu bilan faollashadi. Fotosintez jarayonida suvning bo'linishiga yordam beradi.

Sink va mis ham ma'lum fermentlarni faollashtirishda ishtirok etadi. interstitsial suyuqlik kaltsiyni qabul qilish va ishlatishda, membrananing ishlashida, gulchaglarning o'sishida, hujayralar cho'zilishida, urug'lanishda va hokazolarda yordam beradi. Molibden nitrogenaza va boshqalar kabi ba'zi fermentlarning tarkibiy qismidir.

Xlor: Xlor erigan moddaning konsentratsiyasini va hujayralarning anion-kation muvozanatini aniqlashda yordam beradi.

O'simlik organizmidagi mikro va makro elementlarning ko'pligi yoki kamligi ham ular uchun zararlidir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan elementlar tanqisligi yuz bersa tarkibida huddi shu kabi elementlarni o'z ichiga qamrab olgan o'g'itlardan foydalanishimiz zarur. Masalan, ammafos, azotli, kaliyli, fosforli o'g'itlar shular jumlasidandir. Chunki ular o'z kimyoviy xossalariga ko'ra o'simlik rivojlanishi uchun muhimdir. Ilmiy tajribalar va olimlarning fikrlariga suyangan holatda shuni aytish mumkinki, o'simlik tuproqdan oladigan o'g'itlar asosida qolganlariga ko'ra yaxshiroq va mukammalroq hosil beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 8-sinf kimyo darsligi
- 9-sinf kimyo darsligi
- "Kimyo" Masharipov
- https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mineral_o%CA%BBg%CA%BBitlar
- https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Organik-mineral_o%CA%BBg%CA%BBitlar

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	EVTANAZIYA –BU JINOYAT	3
2	G'AZNACHILIKDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI	7
3	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТА В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ	10
4	ПРИМЕНЕНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА	14
5	ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗАХ.	18
6	DENGIZ CHO'CHQALARI OSHQOZON OSTI BEZI CHIQARUV NAYLARINING MORFOLOGIYASI	22
7	ПРАВИЛЬНЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ И ПИТАНИИ ПУТЬ К ЗДОРОВЬЕ	31
8	РОЛЬ ГОРМОНОВ ТОНКОЙ КИШКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ МЕТАБОЛИЧЕСКОГО БАЛАНСА	38
9	SINTAKSIS VA SOTSIOLINGVISTIKA	53
10	ВЫБОР АКТИВНЫХ МИНЕРАЛЬНЫХ НАПОЛНИТЕЛЕЙ ДЛЯ НЕАВТОКЛАВНОГО ГАЗОБЕТОНА	56
11	TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH	61
12	МАТЕРИАЛЫ ДЛЯ РЕКОНСТРУКЦИИ КОСТНОЙ ТКАНИ В ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ХИРУРГИИ: ОБЗОР АКТУАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ	66
13	БИР ЭКСПОНАТ ТАРИХИ	78
14	МУЗЕЙЛАРДА САҚЛАНАЁТГАН БУ БУЮМЛАРНИ ФАРҚИНИ БИЛАСИЗМИ?	80
15	НОЁБ ПЎЛАТ ҚИЛИЧ	82
16	AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES	85
17	QAT-QOMATNING SHAKLLANISHI VA YASSIOYOQLILIK	88
18	РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА	90
19	ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	94
20	НОВЫЕ СЛОВА И ВЫРАЖЕНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА У СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП	98
21	GREEN ENERGY IS THE ENERGY OF THE FUTURE	102
22	СУЛТАН ГАЗАЛЬ СОБСТВЕННОСТЬ: МИР АЛИШЕР НАВОИ	106
23	ОРГАНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	115
24	FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANIDA ILG'OR PEDAGOGIK TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	120
25	ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ И ПАТОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ГОРМОНА ГРЕЛИН В ОРГАНИЗМЕ	126

26	ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА РЕАЛ СЕКТОРДАГИ ДАВЛАТ МУЛКИНИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ	134
27	ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ КўРСАТИШДА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЙўЛЛАРИ	139
28	ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТНИНГ РАҚОБАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ўРНИ	148
29	CHAQALOQ DAVRI KASALIKLARIDA HAMSHIRALIK PARVARISHI KASALLIKLARI	153
30	JIGAR SIRROZI KASALIKLARIDA BEMORLAR PARVARISHI	159
31	SUV GIGIENASI, SUVNING GIGIENIK EPIDEMIOLOGIK AHAMIYATI	164
32	TUZZLARNING XALQ XO'JALIGI VA SANOATDAGI AHAMIYATI	171
33	O'ZBEKISTONDAGI IFLOSLANGAN SUV HAVZALARI VA ULARNI TOZALASH CHORA TADBIRLARI	174
34	O'ZBEKISTON TUPROQ ZONALARI VA ULARNING TARKIBIDAGI KISLOTA MIQDORI	178
35	“BOLAGA NISBATAN QADRYATLI MUNOSABAT OTA ONALIK MUVAFAQIYATINI TA'MINLAYDIGAN OMIL SIFATIDA”	180
36	“ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING USLUBIY VA ILMIY ASOSLARI”	185
37	MAMLAKATIMIZDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYA TIZIMINI BAHOLASH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	188
38	SHARTLI REFLEKSLARNING HOSIL BO'LISHI, FOYDALI VA ZARARLI OQIBATLARI	196
39	ERITMA VA UNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIR	199
40	O'SIMLIK ORGANIZMIDAGI MODDALAR ALMASHINUVINING MIKRO VA MAKRO ELEMENTLARI TURI	202



**JOURNAL OF
NEW CENTRY
INNOVATIONS**

IN ALL AREAS

